

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

5120100-filologiya o`zbek tili yo`nalishi

402-guruh talabasi

**AZIBOYEVA (ISOQOVA) FOTIMAXON ABDURAHMON QIZIning
bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

“QODIRJON NOSIROV – ADABIYOTSHUNOS OLIM”

MAVZUSIDA BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

BMI rahbari: Mo`minjon SULAYMONOV

O`zbek tili va adabiyoti kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Namangan – 2017

Reja:

So`zboshi

I bob. Qodirjon Nosirovning ijodiy biografiyasi.

- 1. 1. Qodirjon Nosirovning muallimlik faoliyati.**
- 1.2. Metodikaga oid kitoblari.**
- 1.3. "Muqaddas lira" va "Lirik lahzalar" klubi rahbari.**

II bob. Qodirjon Nosirovning ijodiy faoliyati.

- 2. 1. Qodirjon Nosirovning hikoyalari tahlili**
- 2. 2. Qissalarining mavzu doirasi.**
- 2. 3. Tarjimonlik faoliyati.**

III bob. Qodirjon Nosirov – adabiyotshunos olim.

- 3.1. Namangan adabiy muhiti haqidagi tadqiqotlari.**
- 3.2. Muhammad Yusyf tadqiqotchisi.**
- 3. 3. O`zbek adabiyotshunosligiga qo`shgan hissasi.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxat:

So`zboshi

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatimizda olamshumul o‘zgarishlar qaror topdi. Biz o‘zligimizni tanidik, bildik, qo‘lga kiritdik desak, ayni muddao bo‘lar. Ozod va obod onayurtimizda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, Mustaqilligimizning me‘mori bo‘lgan I.A.Karimov rahbarligida buyuk islohotlar jadallik bilan boshlab yuborildi. Jumladan, ta‘lim sohasini isloh qilishga juda katta e‘tibor qaratildi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ishlab chiqilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Uzluksiz ta‘lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatdosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi¹.

Uzluksiz ta‘lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma‘lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma‘naviy-ahloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi².

O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 12 - yanvar kuni e‘lon qilingan “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” gi farmoyishida “...o‘zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro‘yxatlarini qayta ko‘rib chiqish...” alohida ta‘kidlangan.³ “Badiiy asar tarjimasining o‘ziga

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Toshkent, 1997, 29 avgust №463-1

² O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” Toshkent, 1997, 29 avgust №463-1

³ Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ti, gaz. 2017, 13 yan, 3-son, 1-bet.

xosligi shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirish, did paydo qilish va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi⁴. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab asarlar tarjima qilinib, ular borasida turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligi har tomonlama rivojlanib bormoqda. Bu sohaning rivojlanishiga viloyatlarda yashab ijod qilayotgan olimlar ham katta hissa qo'shmoqdalar. Bunday olimlar mahalliy adiblar asarlarini tahlil va talqin qilish orqali o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqdalar. Shuningdek, boshqa adiblar ijodini o'rganish sohasida ham qalam tebratmoqdalar.

Ana shunday olimlardan biri NamDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Qodirjon Nosirov hisoblanadi. U mana sal kam 50 yildan buyon talabalarga saboq berish bilan birga ilmiy tadqiqot va badiiy ijod bilan ham shug'ullanib kelmoqda. Qodirjon Nosirov nomzodlik ishini adabiyot fanini o'qitish muammolari bo'yicha himoya qilgan bo'lsa ham badiiy ijod sohasida, xususan, badiiy tarjima yo'nalishida muvaffaqiyatli davom ettirdi. U keyinchalik ilmiy tadqiqotlar bilan jiddiy shug'ullandi. Namanganlik adiblar asarlariga taqrizlar yozdi. Matbuotda muntazam qatnasha boshladi. Ilmiy tadqiqotlari e'lon qilindi.

Qodirjon Nosirov keyingi 10 yil davomida mashhur shoir, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodini jiddiy o'rgandi. Aytish mumkinki, O'zbekistonda birinchi bo'lib Muhammad Yusuf haqida risola – esse nashr qildirdi. Keyinroq bu mavzudagi ishlarini davom ettirdi va Muhammad Yusuf ijodi haqida maxsus monografiya chop ettirdi.

Olim bulardan tashqari Namanganlik o'nlab ijodkorlar asarlariga taqrizlar yozdi. Xususan, Jamoldin Muslim ijodiga oid alohida risola yozdi.

Qodirjon Nosirov ilmiy izlanishlari maxsus o'rganilmadi. Shuning uchun ushbu bitiruv-malakaviy ish mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilishi. Qodirjon Nosirov ilmiy ijodi haqida matbuotda ayrim maqolalar bosilgan. Turli mavzularda o'tkazilgan anjumanlar to'plamlarida

⁴ Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.11.

ham fikr – mulohazalar bildirilgan. 2017- yil NamDU da o'tkazilgan “Tillararo hamdo'stlik – madaniyatlararo hamdo'stlik” mavzusidagi respublika konferensiyasida ham olimning ijodi haqida ma'ruzalar o'qildi va ular alohida to'plamda chop etildi.

Bitiruv-malakaviy ishning o'rganish manbalari. Qodirjon Nosirov haqida gazeta va jurnallarda, ilmiy to'plamlarda bosilgan maqolalar, olimning kitoblari to'g'risidagi taqrizlar, shuningdek, olimning adabiyotshunoslikka oid risola va kitoblari mazkur bitiruv-malakaviy ishning o'rganish manbai qilib olindi.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. NamDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, malakali pedagog va ijodkor, adabiyotshunos olim Qodirjon Nosirovning ilmiy asarlari mundarijasini tuzish, bu asarlarda ilgari surilgan fikr - mulohazalarni tahlil qilish ushbu bitiruv-malakaviy ishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb hisoblaymiz:

- Qodirjon Nosirov adabiyotshunoslikka oid maqolalarining mavzusini aniqlash;
- Qodirjon Nosirovning badiiy asarlarga yozgan taqrizlarini aniqlash;
- Qodirjon Nosirovning adabiyotshunos olimlarning ijodi haqidagi maqolalarini to'plash;
- Qodirjon Nosirovning namanganlik ijodkorlar asarlari to'g'risidagi maqolalarini tahlil qilish;
- Qodirjon Nosirovning Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga oid maxsus tadqiqotlarini tahlil qilish orqali uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasini belgilash.

Bitiruv-malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv-malakaviy ish natija va xulosalaridan “Namangan adabiy muhiti”, “O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiy asar tahlili” kabi kurslarni o'qitishda, ma'ruza, amaliy seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan fanlar bo'yicha uslubiy qo'llanma va ishlanmalar yozishda ham

foydalangan ma'qul. Bu ushbu bitiruv-malakaviy ish ning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv-malakaviy ish Kirish, 3 ta asosiy bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning oxirida mavzuga oid slaydlar ilova qilingan.

I bob. Qodirjon Nosirovning ijodiy biografiyasi.

1. 1. Qodirjon Nosirovning muallimlik faoliyati.

O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimizda olamshumul o'zgarishlar qaror topdi. Biz o'zligimizni tanidik, bildik, qo'lga kiritdik desak, ayni muddao bo'lar. Ozod va obod ona-yurtimizda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, Mustaqilligimizning me'mori bo'lgan I.A.Karimov rahbarligida buyuk islohotlar jadallik bilan boshlab yuborildi. Jumladan, ta'lim sohasini isloh qilishga juda katta e'tibor qaratildi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ishlab chiqilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 12 - yanvar kuni e'lon qilingan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" gi farmoyishida "...o'zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatiya adabiyotlari ro'yxatlarini qayta ko'rib chiqish..." alohida ta'kidlangan.⁵ "Badiiy asar tarjimasining o'ziga xosligi shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg'uni o'stirish, did paydo qilish va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi⁶. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab asarlar tarjima qilinib, ular borasida turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda.

Qodirjon Nosirov 1947-yil 20-dekabrda Namangan viloyat Yangiqo'rg'on tuman Ayqiron qishlog'ida (hozirda Chortoq tuman Chortoq shahri) novvoy Mahmudov Nosirboyboy (1914-1996) va kolxozchi-dehqon Mahmudova Saidaxonlar (1925-2003) oilasida tug'ilgan. 1952-yilda mahallasidagi boshlang'ich maktabga birinchi sinfga o'qishga kiradi. O'shanda bor-yo'g' besh yosh edi. Qodirjon Nosirov pedagoglik faoliyari, ilmiy-ijodiy izlanishlari haqida

⁵ Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, gaz. 2017, 13 yan, 3-son, 1-bet.

⁶ Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.11.

o`nlab adabiyotshunoslar, jurnalistlar maqola va taqrizlar yozishgan. Masalan, Syriya Magdiyeva, Po`lat Hamdam, Dibar haydarova, temur Mashrabov, Aziz Jalilov, Nosirjon Dehqonov, Rustamjon Ummatov, Otash Xolmirzayev, Saydumar Saydaliye, Mahmudjon Parpiyev, Mo`minjon Sulaymonov kabi olim va jurnalistlarning nomlarini eslash kifoya deb hisoblaymiz.⁷

⁷С. Магдеева. Наставник. // Наманганская правда, 2005, №32. П.Хамдам, С.Магдеева. “Заветная лира” привлекает дарование. // Народное слово, 8.11.2005. 3. Редакционная. В помощь учителям-русистам. (Об учебном пособии К.Насырова и Х.Валихановой “Самостоятельная работа по русскому языку”) // Наманганская правда, 2006, №3. П. Хамдамов. Когда не иссякает энергия. // Учитель Узбекистана, 2008, № . М.Азизов, Д.Хайдарова. Мохир таржимон. / Маънавият сарчашмалари. “Наманган” нашриёти., 2009. Т. Машраби. Пушкинский лауреат из Намангана.. // Наманганская правда, 2010, №24. “Заметки о литературной жизни Намангана” // Наманганская правда, 2010, №9. Азиз Джалилов. Пушкинский лауреат из Намангана. // Независимая газета “Новости узбекистана”. Выпуск №23 (513), от 11 июня 2010г. Умματος Р.Н. Дехқонов. Ҳам адабий, ҳам журналистик тадқиқот. (“Муҳаммад Юсуф Наманганда ёхуд Ориятли муҳаббат ҳақида” китоби ҳақида). // Наманган ҳақиқати, 2012, 7 июль. О. Юлдашева....”Муҳаммад Юсуф Наманганда...” ҳақида эди????..... // Наманган садоси”; Оташ Холмирзаев. Бизнинг Муҳаммад Юсуф. (“Муҳаммад Юсуф Наманганда. Ёхуд ориятли муҳаббат” китоби ҳақида) // Наманган ҳақиқати, 7.08.12. Абдусаттор Аҳмадалиев. Орият ҳақида қўшиқ. (“Муҳаммад Юсуф Наманганда ёхуд Ориятли муҳаббат” китоби ҳақида) // Маҳорат мактаби, 26.04.13. Сайдалиев С. Китоб – мулоқот воситаси (Честерфилднинг “Фарзандга мактублари мисолида”) // Маҳорат мактаби, 23.06. 2013. М. Парпиев. Савоб кидирган адиб. (“Ўғай қалдирғоч” китоби ҳақида). // Наманган ҳақиқати, Мизроб Бўронов. Қалам юки – олам юки. (Нашриётлар фаолиятини кузатганда. Ушбу мақолада Қ. Носировнинг “Ўғай қалдирғоч” китоби ҳақида қисқача фикр билдирилган.) // Маънавий ҳаёт, 2014, № 2. О. Юлдашев. Муаллим – камолот ичра кўзгудир. // Акс садо, 25.06.2015. О. Юлдашев. Муаллим – камолот ичра кўзгудир. // Наманган ҳақиқати, 26.09.2015. Д. Тожибоева. Наманган адабий муҳитида ҳикоя жанри ифодаси. / Тил ва таржима муаммолари, 8-китоб. Наманган, 2015. С. Магдеева. “Мне везёт на хороших людей”. // Леги, С. Сайдалиев. Муҳаммаднинг беназир ва бетакрор муҳаббат мактаби. / Содружество языков – Содружество культур. – Наманган: 2016. М. Қодирхонов. Қодиржон Носиров – истеъдодли ёшларнинг кашфийтчиси. / “Устозлар тажрибаси – ибрат мактаби” илмий-амалий анжуман материаллари. Наманган, 2016. А. Абдулазизов. Энтузиаст своего дела. // Наманганская правда, 2016, 1 октября. С. Сайдалиев. Беназир ва бетакрор Муҳаммад Юсуф. // Акс садо, 2016, 1-15 декабрь. 25. Сулаймонов М. (Ф. Исокова билан). Қодиржон Носиров – Муҳаммад Юсуф тадқиқотчиси. Тил ва адабиёт масалалари. – Наманган: 2017, 155-157-бетлар.

1956-yilda boshlang'ich maktabni bitirib, 21-to'liqsiz o'rta maktabga o'qishga boradi. 1959-yilda 58-o'rta maktabga o'tadi. 1962-yilda 58-o'rta maktabni bitiradi. Namangan davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetga hujjat topshiradi, ammo yetarli ball to'play olmaganligi uchun o'qishga qabul qilinmaydi. Shundan so'ng u Chortoq matlubot jamiyatiga qarashli nonvoyxonada otasi yonida mehnat faoliyatini boshlaydi.

1963-yilda imtihonlarni muvaffaqiyat topshirib, Namangan davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetga o'qishga qabul qilinadi.

1966-uchinchi kurs talabasi Pavel Moiseyevich Bronshteyin rahbarligida "XIX asr oxirida qishloq aholisining proletarlashuvi" mavzusida rus tilida ilk bor ilmiy konferensiyasida ma'ruza qiladi.

1967-yilda "Talaba va ilmiy-texnik taraqqiyot" Butunittifoq konferensiyasining institut bosqichida "Slovoobrazovanie suщestvitelных (na matyeriale poemy N. Nekrasova «Komu na Rusi Jit xorosho»)" mavzuida ma'ruza qiladi. Ma'ruza bilan Respublika bosqichida qatnashadi va II- darajali diplom bilan taqdirlanadi. (Qarshi shahar, 21-25 aprel).

1968-yilda institutni imtiyozli diplom bilan bitirdi; rus va chet eladabiyoti kafedrasiga o'qituvchi qilib ishga olib qolishdi.

1973-yilda Moskva Pedagogika fanlari Akademiyasiga qarashli "Milliy maktablarda rus tili o'qitish" ilmiy tadqiqot institutiga ikki yillik staJirovkaga yuboriladi. Bu yerda u taniqli adabiyotshunos olimlar professor A.A. Volkov va katta ilmiy xodim I.E. Kaplan rahbarligida rus adabiyoti va uni o'qitish mutaxassisligi sirlarini egallash bilan birga maqsadli aspiranturaga kirishga tayyorgarlik ko'radi, "O'zbek maktablarida M. Gorkiy hayotiva ijodini o'rganish" mavzusida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullana boshlaydi. Ayni paytda u Namanganga ham kelib viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish institutida va bir qator o'rta maktablarda ilg'or o'qituvchilar taJribasini o'rganadi.

1975-1978-yillarda SSSR Pedagogika fanlari Akademiyasiga qarashli "Milliy maktablarda rus tili o'qitish" ilmiy tadqiqot instituti qoshidagi aspiranturaning adabiyot metodikasi sektorida tahsil ko'rdi.

1978-yil 1 oktyabrdan Namangan davlat pedagogika institutining rus va chet el adabiyoti kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi.

1979-yil 30 yanvarda SSSR Pedagogika fanlari Akademiyasiga qarashli "Milliy maktablarda rus tili o'qitish" ilmiy tadqiqot institutining Maxsus ilmiy Kengashida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya himoya qildi.

1980-yilda Namangan davlat pedagogika instituti talabalar ilmiy jamiyatiga rahbar etib saylanadi. Ayni paytda Namangan shahar bo'yicha talabalar ilmiy jamiyatida ham raislik vazifasini bajarib bordi.

Qodirjon Nosirov 1983-yil 23-mayda Namangan davlat pedagogika instituti rus tili va adabiyoti fakultet dekani lavozimiga tayinlanadi.

Domla 1985-yil 25-sentyabrda dozent ilmiy unvoniga sazovor bo'ladi.

Qodirjon Nosirov 1989-yil fevral oyida O'zKP Namangan viloyat partiya qo'mitasi lektorlar guruhi rahbari vazifasiga tayinlanadi.

1990-yil 2-fevralda o'z arizasiga binoan Namangan viloyat partiya qo'mitasida lektorlar guruhi rahbari vazifasidan ozod etiladi va yana Namangan davlat pedagogika instituti rus tili fakultet dekani lavozimiga tayinlanadi.

1992-yil "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" unvoni bilan taqdirlandi.

1994-yil 26-avgustda o'z xohishiga binoan rus tili va adabiyoti fakultet dekani lavozimidan ozod etilgandan so'ng rus va chet el adabiyoti kafedrasida doxenti sifatida pedagogik faoliyatini davom ettiradi.

1997-yil mart oyidan boshlab NamDU murabbiylar Kengashi raisi vazifasida ishladi. O'sha yili talabalikka qabul qilish tantanali marosimini tayyorladi va universitetda birinchi marotaba 31 avgust kuni Alishyer Navoiy nomli viloyat musiqa va drama teatri sahnasida o'tkazildi. Tadbirning badiiy qismida "Al-Ahram" (Piramida) intellektual o'yin ilk bor taqdim qilindi. Keyinchalik ushbu o'yin Q. Nosirovning pedagogik faoliyati davomida, jumladan, "Adabiyotshunoslikka kirish" fanini o'zlashtirish yakunlari bo'yicha sahnada sinov tariqasida "Bilim. Tafakkur. Tabassum" (BTT) nomi bilan bir necha bor qo'llandi.

Qodirjon Nosirov 1997-yil 30 iyunda rus va chet eladabiyoti kafedrasini mudiri etib tayinlandi.

1998-yilda Qodirjon Nosirovning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligi, hamda Qirg'iz madaniyati markazi viloyat bo'limi faollari ishtiroki bilan mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning 70 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim Namangan viloyati Alishyer Navoiy nomli musiqa va drama teatrida o'tkazildi. Tantanali qismdan so'ng rus va chet tillar fakultet talabalari tomonidan tayyorlangan "Manqurt" spektakli namoyish etildi.

Qodirjon Nosirov 1999-yil 12 aprelda Jahon tillari fakultet dekani muovini vazifasiga tayinlandi.

1999-yil 1 ioldan NamDU qoshidagi "Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv Markazi" direktori lavozimiga tayinlanadi.

"O'zbekiston – Vatanim manim" adabiyot, sang'at va mehnatkashlarning badiiy havaskorlik ijodiyoti ko'rik tanlovida ishtirok etib, Viloyat kasaba uushmalari mukofoti va diplomi bilan taqdirlandi.

Qodirjon Nosirov 2001-yil qayta tuzilgan Namangan viloyat Hokimligi va NamDU qoshidagi "Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv Markazi" direktori lavozimiga tayinlanadi.

Qodirjon Nosirov 2001-yil 25 avgustda NamDU xoriJiy tillar fakultet dekan o'rinbosari maqomida Rus tili va adabiyoti bo'limiga boshliq qilib o'tkazildi.

2002-yil boshida rus tili va adabiyoti hamda ingliz tili rusiyazon guruhlari ishtirokida "Zavetnaya Lira" yosh qalamkashlar klubini tuzib, uning birinchi konkursni 2-mart kuni Jahon Xotin-qizlari bayramiga bag'ishlab o'tkazdi; ko'p o'tmay konkurs g'oliblarining birinchi almanaxi "Namangan" nashriyotida chop etildi. Keyinchalik klub "Zavetnaya lira – Muqaddas lira" deb atala boshlandi;

Muqaddas lira" 2014 yildan – "Lirik lahzalar" ijodkor yoshlar klub deb nomlanadi.

2014-yil 11 aprelda NamDU Akademliqey, kasb-hunar kolleJlari bilan aloqa va marketing xizmatlari bo'icha NamDU prorektori vazifasiga tayinlandi.

Qodirjon Nosirov shu yili “Oliy ta’lim a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

2004-yil 29 yanvardan Xorijiy tillar fakultet dekani o’rinbosari maqomida Rus tili va adabiyoti bo’limiga rahbar lavozimiga o’tkazildi.

2005-yilda Qodirjon Nosirovning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligida O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi professor Tursunoy Hamidovna Hamidovaning 80-yilligiga bag’ishlangan an’anaviy ilmiy konferensiya o’tkazildi (2015-yilga qadar “Hamidovskie chteniya” 5 marotaba o’tkazildi va beshta ilmiy to’plam chop etildi).

2008-yil dekebr oyida Chingiz Aytmatovning 80-yilligiga bag’ishlab magistrantlar va iqtidorli talabalar ilmiy konferensiyasi o’tkazildi va uning materiallari “Zavetnaya Lira – Chingizu Aytmatovu” nomi ostida chop etildi.

Qodirjon Nosirovning tashabbusi bilan va rektorat homiyligida “Safimizdagi ustozlar” kitobini yaratish loyihasi ishlab chiqildi. Bunga ko’ra universitet bo’yicha 85 nafar yoshi ulug’ va boshlangan loyiha mezonlariga mos ustozlar ro’yxatga olindi va bular to’g’risida ilmiy-ommabop ochyerklar yaratish uchun 10 kishida iborat mualliflar kollektivi tuzildi. Ushbu loyihaning 34 ustoz haqidagi ochyerklarni o’z ichiga olgan birinchi qismi bosmadan chiqdi (Mualliflar: Q. Nosirov, S. Saydaliev, A. Turdaliev).

2009-yil universitet Murabbiylar kengashi raisi sifatida Qodirjon Nosirov to’plagan tajriba va takliflari asosida yaratilgan “O’quv guruhi rahbari uchun qo’llanma-kundalik” chop etildi.

2010-yilda Qodirjon Nosirov Rus tili muallimlari Xalqaro Pushkin tanlovida qatnashib, uning laureati bo’ldi.

2011-yilda Qodirjon Nosirovning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligida birinchi bor “Sodrujestvo yazыkov – sodrujestvo kultur” mavzusida Respublika ilmiy konferensiya o’tkazildi va u keyinchalik an’anaga aylandi.

2013-yil 5-7-iyunda an’anaviy “Sodrujestvo yazыkov – sodrujestvo kultur” Respublika ilmiy konferensiyasi ikkinchi marotaba o’tkazildi va uning materiallari chop etildi.

2014-yil aprel oyida Qodirjon Nosirovning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligi bilan “Lirik lahzalar” ijodkor yoshlar klubi reJasi doirasida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 60 yilligiga bag‘ishlangangan ijodkor yoshlar tanlovi viloyat miqyosida o‘tkazildi. Unda 300 dan ortiq asar ishtirok etdi. Konkurs g‘oliblarining asarlaridan tuzilgan almanax 2015 yilda chop etildi.

Uning rahbarligida professor T.H. Hamidovaga bag‘ishlangangan navbatdagi (to‘rtinchi) ilmiy maqolalar to‘plami “Filologiya – mejkulturnye kommunikačii – texnologii obrazovaniya” nomi bilan chop etildi.

2015-yil O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 60 yilligiga bag‘ishlangangan ijodkor yoshlar viloyat tanlovi g‘oliblarining asarlaridan tuzilgan “Lirik lahzalar-1(6)” nomli almanax chop etildi va uning tag‘dimoti tantanali ravishda o‘tkazildi. Bu klub a‘zolarining 6-almanaxi bo‘ldi.

2016-yil Qodirjon Nosirov qariyb 10 yil davom etgan izlanishlar natiJasida yaratilgan “Muhammad Yusuf Namanganliklar nigohida” deb nomlanuvchi monografiyasini “Namangan” nashriyotida chop etildi. Muallif 26 aprelda Muhammad Yusufning tavallud kuni uning tug‘ilib o‘sgan uyida o‘tgan an‘anaviy marosimda kitobni shoirning qarindoshlariga, shu Jumladan, qizi Madinaga taqdim etdi.

Shu yili may oyida Namangan davlat universitetida an‘anaviy “Sodrujestvo yazыkov – sodrujestvo kultur” 4-Respublika ilmiy konferensiyasi o‘tkazildi va uning matyeriallari to‘plami chop etildi.

2017-yil 5-6-aprel kunlari Namangan davlat universitetida an‘anaviy “Sodrujestvo yazыkov – sodrujestvo kultur” 5-Respublika ilmiy konferensiyasi o‘tkazildi va uning matyeriallari to‘plami chop etildi.

1.2. Metodikaga oid kitoblari.

1. Izucheniye Jizni i tvorchestva M. Gorkogo v uzbekskoy shkole. (Avtorefyerat dissyertatsii na soiskanie uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk). Moskva, 1978.
2. Roman «Mat» v ideyno-esteticheskom vospitanii uchashixsya uzbekskix shkol. Posobie dlya uchiteley. Pedagogicheskoe obshchestvo Uz SSSR, Namangan, 1991.
3. Rus tilini o`rganamiz (Mustaqil o`rganuvchilar uchun qo`llanma). Namangan, 1991.
4. Primyernyy uchebno-tematicheskiy plan i programma dlya narodnykh universitetov russkogo yazyka i lityeratury. Metodicheskie ukazaniya. Namanganskoe oblastnoe otделение obshchestva «Znanie», Namangan, 1998.
5. Kvalifikatsionnaya pedagogicheskaya praktika. Metodicheskie ukazaniya. Namangan, 2002.
6. Namangan davlat universiteti. Prospekt. Namangan, 2003.
7. Samostoyatel'naya rabota po russkomu yazyku. Uchebno-metodicheskoe posobie. Namangan, 2006.
8. Tyerminologicheskiy minimum dlya sostavleniya tematicheskogo slovarya po kursu "Vvedeniye v lityeraturovedeniye" (v pomoshch studencheskomu samoobrazovaniyu). Namangan, 2007.
9. Teoriya i praktika pyerevoda. Uchebno-metodicheskoe posobie dlya prepodavateley i studentov. Izdatelstvo "Namangan", 2008.
10. Zadaniya dlya samostoyatel'noy raboty studentov po kursu «Teoriya lityeratury». Metodicheskoe posobie. Namangan, 2008.
11. O`quv guruhi rahbari uchun qo`llanma-kundalik. Namangan, 2009.
14. Metodicheskoe posobie po sostavleniyu tematicheskogo slovarya lityeraturovedcheskix tyerminov. Namangan, 2010.
15. Russkiy yazyk – Slavyanskaya filologiya – Pushkinskiy konkurs. Uchebno-metodicheskoe posobie. Namangan, 2014.

16. Mustaqillik – burok qadriyat. O`quv qo`llanma. (hammualliflikda). Namangan, 2000.

17. Namangan davlat universitetida rus tili va adabiyoti fani bo`yicha kadrlar tayyorlash tarixidan. “Namangan” nashriyoti, 2017.

1997-yili talabalikka qabul qilish tantanali marosimini tayyorladi va tadbir universitetda birinchi marotaba 31 avgust kuni Alishyer Navoiy nomli viloyat musiqa va drama tetri sahnasida o`tkazildi. Tadbirning badiiy qismida “Al-Ahram” (Piramida) intellektual o`yin ilk bor taqdim qilindi. Keyinchalik ushbu o`yin Q. Nosirovning pedagogik faoliyati davomida, Jumladan, “Adabiyotshunoslikka kirish” fanini o`zlashtirish yakunlari bo`yicha sahnada sinov tariqasida “Bilim. Tafakkur. Tabassum” (BTT) nomi bilan bir necha bor qo`llandi.

1.3. "Muqaddas lira" va "Lirik lahzalar" klubi rahbari.

2002-yil boshida rus tili va adabiyoti hamda ingliz tili rusiyzabon guruhlar ishtirokida "Zavetnaya Lira" yosh qalamkashlar klubini tuzib, uning birinchi konkursni 2-mart kuni Jahon Xotin-qizlari bayramiga bag'ishlab o'tkazdi; ko'p o'tmay konkurs g'oliblarining birinchi almanaxi "Namangan" nashriyotida chop etildi. Keyinchalik klub "Zavetnaya lira – Muqaddas lira" deb atala boshlandi;

Muqaddas lira" 2014 yildan – "Lirik lahzalar" ijodkor yoshlar klub nomlanadi.

2008-yil dekebr oyida Chingiz Aytmatovning 80-yilligiga bag'ishlab magistrantlar va iqtidorli talabalar ilmiy konferensiyasi o'tkazildi va uning mateiriallari "Zavetnaya Lira – Chingizu Aytmotovu" nomi ostida chop etildi.

2014-yil uning tashabbusi va bevosita tashkilotchiligi bilan "Lirik lahzalar" ijodkor yoshlar klubi reJasi doirasida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning 60 yilligiga bag'ishlangangan ijodkor yoshlar tanlovi viloyat miqyosida o'tkazildi. Unda 300 dan ortiq asar ishtirok etdi. Konkurs g'oliblarining asarlaridan tuzilgan almanax 2015 yilda chop etildi.

2015-yil O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 60 yilligiga bag'ishlangangan ijodkor yoshlar viloyat tanlovi g'oliblarining asarlaridan tuzilgan "Lirik lahzalar-1(6)" nomli almanax chop etildi va uning tag'dimoti tantanali ravishda o'tkazildi.

Bu klub a'zolarining 6-almanaxi bo'ldi.

Namangan davlat universitetida ijodkor yoshlar bilan ishlash taJribasidan. Namangan, 2017.

Zavetnaya lira. Almanax. Izdatelstvo "Namangan", 2002.

Zavetnaya Lira. Almanax. Izdatelstvo "Namangan", 2004.

Mukaddas - Zavetnaya Lira. Almanax. Izdatelstvo "Namangan", Namangan, 2005.

Zavetnaya Lira–Muqaddas Lira. Almanax. Izdatelstvo "Namangan", 2007.

Zavetnaya Lira - Chingizu Aytmatovu. Materialy nauchnoy konferentsii odaryonnykh studentov i magistrantov, posvyayonnoy 80-letio CH. Aytmatova. Namangan, 2008.

“Lirik lahzalar”-1(6). Muhammad Yusuf tavalludi 60 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan ochiq tanlov g`oliblarining asarlaridan tuzilgan almanax. Namangan, 2015.

II-bob. Qodirjon Nosirov – adabiyotshunos olim

2.1. Qodirjon Nosirov - Namangan adabiy muhiti tadqiqotchisi

Qodirjon Nosirov namanganlik ijodkorlarning har bir yangi asarlaridan xabardor bo'lib boribgina qolmasdan unga darrov o'z munosabatini bildiradi. Taqriz yoki maqola yozib matbuotda e'lon qiladi. Keyingi yillarda ayrim janrlar haqida ham alohida tadqiqotlar yozayotganligi diqqatga sazovordir. Bu o'rinda sonet janriga oid tadqiqotini nazarda tutmoqdamiz. Qodirjon Nosirov 2008-yil "Sonet va sonetlar gulchambari" nomli risolasini chop ettirdi. Bu risolada lirik turning eng murakkab janrlaridan biri sonet haqida bahs yuritiladi. O'zbek adabiyotiga Yevropa she'riyatidan kirib kelgan bu janrning eng mukammal namunalarini o'tgan XX asrda namanganlik hassos shoir Usmon Nosir yozgan edi. Uning sonetlari salkam bir asr davomida kitobxonlar qalbini rom qilib kelayotgani hammaga ma'lum. Usmon Nosirdan so'ng ham bu janrga murojaat qilgan shoirlar ko'p bo'lgan. Ammo ularning sonetlari mashhur bo'la olmadi. Namanganlik shoirlar: Muhammad Mirzo, Jamoliddin Muslim sonet janrida barakali ijod qilib kelmoqdalar. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ularning sonetlari haqida Qodirjon Nosirov maxsus risola yozgan. Bu risolada dastlab muallif sonet janrining o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tadi. Bu janrning paydo bo'lishi va rivojlanishi, janrning mashhur namunalarini yaratgan ijodkorlar haqida ham qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. An'anaga ko'ra bir mavzuda yaratilgan sonetlar ijodkorlar uchun katta sinov vazifasini o'tagan. Bu an'anani sonetlar gulchambari deb nomlash odat tusiga kirgan. Sonetlar gulchambarini yozish hamma shoirlarga ham nasib qilavermagan. Kamdan –kam shoirlargina sonetlar gulchambarini yaratish sharafiga ega bo'lishgan.

Bu risolada avvalo Muhammad Mirzoning sonetlari to'g'risida bahs yuritilgan. Shoirning bir necha sonetlari tahlilga tortilgan. Masalan, "Zaynab va Kumush" deb atalgan sonetni tadqiq qiladi. Bu fojining badiiy ifodasi obrazli chiqqanligini alohida ta'kidlaydi.

Kundoshlik azobi toshirdi g'azab,
Huzur –halovatlar bo'ldi faromush.

Yayrab yig'lolmadi, kulmadi yayrab,
Yog'iga qovurilgan Zaynab va Kumush.

Risolaning keyingi qismida namanganlik iqtidorli shoir Jamoliddin Muslim sonetlari haqida fikr yuritiladi. Qodirjon Nosirov avvalo o'zbek she'riyatida sonet janrining nisbatan ko'p namunalarini yozgan Barot Boyqobilov she'rlariga ham to'xtalib o'tadi. Shoir tomonidan 31 ta sonet yaratilganini alohida ta'kidlaydi. U boshdan –oyoq sonetlardan iborat “Samarqand ushshog'i” nomli doston yozganligini aytadi. Bu o'zbek she'riyatida yangi hodisa bo'lgan ekan. Demak, o'zbek adabiyotida Usmon Nosirdan keyin eng ko'p sonet yozgan shoir Barot Boyqobilov bo'lgan deb xulosa qiladi Qodirjon Nosirov. Mana shu qismda Barot Boyqobilov bilan Jamoliddin Muslim sonetlarini qiyosiy tahlil qilingan.

Jamoliddin Muslim sonetlarini umumlashtirib, “OshiQodiron Nosirovoma” deb nomlagan. Shoir bu sonetlar to'plamini mashhur italyan shoiri, Uyg'onish davrining ilk ijodkori Alegeri Dantening “Ilohiy komediya” va buyuk nemis shoiri I.V. Gyotening “Faust” asarlari ta'sirida yaratganligini alohida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, sonet janriga italyan uyg'onish davrining atoqli shoiri Franchesko Petrarka tomonidan asos solingan. Qodirjon Nosirov jahon adabiyoti tarixi haqida yaxshi bilimga ega ekanligini namoyon qilgan.

Olim Jamoliddin Muslimning she'rlarini tahlil qilar ekan, ulug' so'fiy shoir Ahmad Yassaviyning mashhur bolib ketgan, qo'shiq qilib kuylanadigan “O'taro” radifli g'azaliga yozgan muxammasini tahlil qiladi.

.....Barcha yovuq

.

.....

Olim aynan yassaviyona g'oyalar Jamoliddin Muslimning “OshiQodiron Nosirovoma” sonetlar to'plamida ham badiiy ifodasini topganligini ham alohida eslatib o'tadi.

“OshiQodiron Nosirovoma” boshdan –oyoq yassaviyona, mashrabona Allohga talpinishdan iborat. Allohining soʻzi-yu shoir nazmida goʻyo yulduzlarga aylangan oʻtganlarning ruhi tarqatayotgan ziyo lirik qahramonga muttasil madad berib turuvchi kuchlardir. Alloh soʻzi – iymon nuri. U inson uchun nozil etilgan, - deb yozadi Qodirjon Nosirov.

“OshiQodiron Nosirovoma”ga xos xarakterli xususiyatni ochib bera oladigan misollarni tahlilga tortganligini alohida qayd etib oʻtish lozim: “OshiQodiron Nosirovoma”da soʻz bu:

Qalbgga tushgan otashin nur – ishq,

Koʻzgu boʻlar oʻz sohibiga

Arshga uchar undayin oshiq

Arshda yetar ishq sohiliga.

Sonetlar gulchambari 15 ta sonetdan tashkil topadi, deydi adabiyotshunos olim. Bular oʻzaro bir mavzu bilan bogʻlangan mustaqil sheʼrlar boʻlib, bir – birini toʻldirib boradi. Shuning uchun ham ularni gulchambar deyish odat tusiga kirgan. Qodirjon Nosirov sonetlar gulchambarini doira shaklida chizib koʻrsatishga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Mumtoz adabiyotshunosligimizda aruz sheʼr tizimidagi bahrlarni doira shaklida chizib koʻrsatish bir anʼanaga aylangan edi. Qodirjon Nosirov ham ana shu yoʻldan borib sonetlar gulchambarini tushuntirishga erishgan. Qaysi sonet doiraning qaysi qismida joylashuvini tasvirlagan.

Ushbu risolaning oxirgi boʻlimi “Chambarmi yo gulchambarmi” deb nomlangan boʻlib, unda olim oʻzining adabiyotshunoslikka doir kuzatishlarini bayon qiladi. Barat Boyqobilov 1972 –yilda “Sonetlar gulchambari” nomi bilan shu janrdagi sheʼrlarini eʼlon qilgan. Jamliddin Muslim esa sonetlar toʻplamini “Sonet gulchambari” deb atagan. “Tafakkur” jurnalida (2005, 3-son) bosilgan Matnazar Abdulhakimning bu janrdagi sheʼrlari “Sonetlar chambari” nomi ostida jamlangan.

Qodirjon Nosirov adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – oʻzbekcha lugʻatini sinchiklab oʻrganib, bu atamalarning eng maʼqul variantlarini qoʻllash

kerak degan fikrni ilgari suradi. Olim bir necha aniq dalillar asosida o'z fikrlarini yakunlaydi: “Demak, yuqorida ko'rilgan atamalar orasida ma'quli – sonetlar gulchambari, o'sha o'zbek sonetchiligining eng yuruk namoyandasi Barot Boyqobilov birinchi ishlatgan so'z.”

Bu risoladan ko'rinib turibdiki, Qodirjon Nosirov o'zbek she'riyatida sonet janrining rivoji va takomilini juda yaxshi o'rganib chiqqan. Aytish mumkinki, Qodirjon Nosirovning ushbu “Sonet va sonetlar gulchambari” nomli risolasi adabiyotshunoslik sohasiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi desak mubolag'a emas.

3.2. Qodirjon Nosirov - Muhammad Yusuf tadqiqotchisi

Qodirjon Nosirov bir necha yillar davomida NamDU rus filologiyasi fakulteti dekani, rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri sifatida faoliyat yuritgan. O'zi o'qitgan shogirdlarining deyarli hammasini tanigan va yaxshi bilagan. Shu tufayli bo'lsa kerak "O'zbekiston xalq shoiri" Muhammad Yusufning bir yil davomida Namangan davlat pedagogika institutida tahsil olganligini eshitib, bu mavzuga jiddiy qiziqib qoldi. Natijada bir necha yil mobaynida tarixiy hujjatlarni, arxiv ma'lumotlarini sinchiklab o'rgandi. Darhaqiqat, Muhammad Yusuf o'rta maktabni bitirgan yili Namangan viloyat Chortoq tuman Peshqo'rg'on qishlog'ida yashayotgan opasi Gulchehra Turdiqulovanikiga keladi. Muhammad Yusufning opasi ham, pochchasi Qanoat Mehmonov ham o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi edilar. Ular shoirtabiat ukalarini Namanganda o'qishga da'vat qiladilar. Shuning uchun Muhammadjon Yusupov o'sha davrda eng obro'li yo'nalish bo'lgan rus tili va adabiyoti fakultetiga hujjat topshiradi. Sinov imtihonlaridan keyin ma'lum bo'ladiki, uning to'plagan ballari yetarli bo'lmaganligi sababli zahira sifatida o'qishga tavsiya etiladi. Shu sababli Muhammad Yusupov bir yil davomida Namangan davlat pedagogika institutida tahsil oladi. O'sha yili kuzda paxta yig'im –terimida faol ishtirok etadi.

Qodirjon Nosirov NamDU arxivida saqlanayotgan hujjatlarda Muhammad Yusupovning o'qishga kirish haqida yozgan arizasi saqlanayotganligini aniqlagan. Lekin uning o'qishga qabul qilinganligi haqida hech qanday hujjat, ma'lumot aniqlanmagan. Aynan o'sha vaqtlarda o'qigan sobiq talabalarni aniqlagan olim ularga xat jo'natadi. Ko'pchilikni universitetga taklif qilib suhbatlar uyushtiradi. Bu izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, haqiqatdan ham ko'pchilik Muhammad Yusufning bir yil davomida Namanganda o'qiganligini tasdiqlaydi. Ko'plab suhbatlar, uchrashuvlar, xat orqali qilingan aloqalar tufayli yig'ilgan ma'lumotlarni bir kitob holiga keltirish fikri tug'ilganini eslaydi. Natijada Qodirjon Nosirov 2012-yil "Muhammad Yusuf Namanganda yoki oriyatli muhabbat" nomli esse yozib "Namangan" nashriyotida 3000 nusxada chop ettiradi. So'zboshi va

xotimadan tashqari besh qismdan tashkil topgan bu kitobcha o'zbek adabiyotshunosligida Muhammad Yusuf ijodi haqida yozilgan birinchi maxsus kitob desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kitobning muhim jihatlaridan biri shundaki, yosh, boshlovchi shoir Muhammadjon Yusupovning o'sha paytdagi she'riy mashqlari tahlil qilingan. Muhammad Yusuf kursdoshlarining deyarli ko'pchiligi ismiga esdalik uchun muashshahlar yozib bergan ekan. Ba'zan esa tug'ilgan kunlar munosabati bilan, ba'zan iltimoslarga ko'ra ham she'rlar yozgan.

Muhammad Yusuf maktabda o'qib yurgan kezlari ham she'rlar mashq qilib yurgan. Vatan mavzusidagi she'rlar tanlovida g'olib chiqqanligi uchun Qirm yarimorolidagi butunittifoq bolalar oromgohi "Artek"ka yo'llanma olgan. Bu oromgohda ham bir qancha she'rlar yozgan ekan.

Muhammadjon Yusupovning maktab davridagi, Namanganda tahsil olgan vaqtdagi yozgan she'riy mashqlari bilan el sevgan mashhur shoir Muhammad Yusuf she'rlari orasida juda katta farq borligini Qodirjon Nosirov aniq misollar bilan ochib bera olgan. Xalq qalbidan mustahkam o'rin oladigan ijodkor bo'lish uchun tinimsiz izlanish va ko'p zahmat chekish zarurligini mana shu kitobchadagi misollar orqali ham bilib olishimiz mumkin. Mashhur shoir sifatida tanilguncha Muhammad Yusuf ham ko'p izlanganligi, katta tajriba yo'lini bosib o'tganligi ma'lum bo'ladi. Mazkur essedan ma'lum bo'ladiki, Muhammad Yusuf Namanganda o'qib yurgan paytlari boshqa fakultetda birinchi kursda oqiydigan talaba qizni yoqtirib qoladi. Unga bag'ishlab juda ko'p she'rlar yozadi. Yosh shoir yigitning maqsadlari, hissiyotlari juda jiddiy bo'lganligi sababli qizning uyiga sovcilarni jo'natadi. Afsuski, bu harakatlar zoye ketadi. Qiz Muhammad Yusufning hissiyotlarini o'tkinchi havas deb o'ylagan, jiddiy qabul qilmagan. Bular hammasi Muhammad Yusufga jiddiy ta'sir qiladi. Natijada u o'quv yilining tugashini kutmay Namangandan ketib qoladi. Agar o'quv yili tugaguncha tahsilni davom ettirib, imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganda haqiqiy talabalikka qabul qilinar va o'qishni ikkinchi kursdan davom ettirgan bo'lar ekan. Qodirjon Nosirov yosh yigit, ta'sirchan shoir o'ta oriyatli bo'lganligi sababli endi Namanganda qolishni va o'qishni davom ettirishni o'ziga ep ko'rmagan deb yozadi. Darhaqiqat,

keyinchalik Muhammadjon Yusupov Toshkentda Respublika rus tili va adabiyoti institutida tahsil oladi va maqsadlari juda jiddiy ekanligini isbot qiladi.

Esse juda qiziqish bilan o`qiladi. Muallif mazkur esseda o`zining ijodkorlik xususiyatlarini yaxshi namoyon qila olgan. Qodirjon Nosirov bu asarni yozishda sobiq talabalr bilan birga shoirning opasi Gulchehra Turdiqulovaning bir qancha fikr –mulohazalarini ham keltiradi. Opaning ta`kidlashicha, ukasi haqiqatdan ham Yangiqo`rg`onlik talaba qizni yoqtirib qolganligini va sovchi jo`natganini alohida ta`kidlagan.

Hali haqiqiy talaba bo`lib ulgurmagan yigitning sovchi yuborishiga nima sabab bo`lgan? Bu savolga Qodirjon Nosirov shunday javob beradi. Muhammadjon sevib qolgan qiz yigitning hislarini, yuqorida ta`didlaganimizdek, shunchaki havas deb o`ylagan. Jiddiy qabul qilmagan. Hazil deb, e`tibor qilmaganligi Muhammadjon Yusupovga juda qattiq ta`sir qilgan. Shuning sababli ham maqsadlari jiddiy ekanligini isbotlash uchun sovchilar jo`natgan edi.

Qodirjon Nosirov o`sha “qaysar qiz” bilan suhbatlashganligini ham batafsil bayon qiladi. “Qausar qiz” shunday hikoya qilgan ekan: “O`sha paytlarda yosh edim, tajribasiz edim, hali o`qishni tugatishim kerak deb o`ylar edim, Muhammadjonning menga atab she`rlar yozishini, oshiqligini shunchaki, otkinchi havas deb o`ylaganman, juda katta xato qilgan ekanman”.

Mazkur essening “Muhammad Yusuf va Namangan adiblari” nomli bo`limi ham g`oyat qiziqarli yozilgan. Bu qismfa atoqli shoir Yoqubjon Ahmadjonov, Umarxon Malhamiy, adabiyotshunos olim Zohidjon Sodiqovlarning xotiralari, fikr-mulohazalari o`rin olgan.

Yoqubjon Ahmadjonov o`z xotiralarida Muhammad Yusufning opasi Gulchehra Turdiqulova va pochchasi Qanoat Mehmonov bilan birga o`qiganligini eslaydi. Ular bir-birlarini yoqtirib turmish qurganliklarini xotiralaydi. Yangi oilaga bag`ishlab maxsus shr`r yuzgan ham ekan. Yoqubjon Ahmadjonov shoirning onasi Enaxon aya bilan ham suhbatlashgan ekan. O`hsnda onaxon o`g`lining mashhur shoir ekanlgida faxrlanib gapirgan ekanlar. Olim Yoqubjon Ahmadjonovning she`rini keltirgan:

Dorilfunun atalgan dunyo,

Shu bo'limda yana Yoqubjon Ahmadjonovning Muhammad Yusuf.ga bag'ishlangan “Yoshlikda sho'x bo'lgan bolalar” sh'eri ham joy olgan.

Mayli sho'x desa birovlar,

... Irodasi butun bolalar.

Yoqubjon Ahmadjonov xotiralari ham Muhammad Yusuf.ning birinchi muhabbati Namangan bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

Shubhasiz Gulchehra opa ham, Yoqubjon Ahmadjonov ham Muhammad Yusuf.ning mashhuk shoir bo'lishida Namangandagi ilk muhabbati bilan bog'liq hissiyorlari katta ta'sir qilganligini alohida ta'kidlaydilar. Bu faktni Muhammad Yusuf.ning turmush o'rtog'I Nazira as-Salom ham “Bekajon” gazetasi muxbiri bilan qilgan suhbatida e'tirof etgan.

“Muhammad Yusuf. va Umarxon Malhamiy” deb nomlangan qismda ham qiziqarli xotiralar bayob qilingan. Namanganlik tabobatchi va shoir Umarxon Malhamiy bir necha marta Muhammad Yusuf bilan suhbatlashgan ekan. Shu suhbatlarda Umarxon Malhamiyning she'rlari haqida ham fikr yuritilgan ekan.

Namangan davlat universiteti dotsenti Zohidjon Sodiqovning xotiralari ham o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Ma'lumki, Muhammad Yusuf atoqli adabiyotshunos olim professor G'ybulla as-Salomning kuyovi bo'lgan. Z. Sodiqov esa professorning shogirdi bo'lganligi uchun tez-tez ustozining xonadoniga borib turgan. professor G'ybulla as-Salomning xonadonida Z. Sodiqov Muhammad Yusuf bilan bir necha marta uchrashgan va suhbatlashgan. Shu suhbatlarning birida Muhammad Yusuf haqiqatan ham bir yil davomida namanganda o'qiganligini aytgan. (46 -bet)

Mazkur essening “Bir syujet izidan” deb nomlangan bo'limida ham Muhammad Yusuf bilan namanganlik ijodkorlarning bog'liq jihatlari yoritilgan. Qodiron Nosirov zukko adabiyotshunos olim sifatida bir qiziqarli syujetning bir necha adib ijodidagi badiiy ifodasini tahlil qilgan.

Olim Muhammad Yusufning “Uch o'g'il va bir qiz qissasi” asarini tahlilga tortar ekan, shu mavzuda yana ikkita asar yozilganini ta'kidlaydi. Bu juda qiziqarli,

ayni paytda o'ta ta'sirchan hikoya bo'lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu mavzuda NamDU professori Odiljon Nosirov "Janoza" hikoyasini yozgan. ("Namangan saddosi" gaz, 1995, 14 dek). Gap shundaki, shoir Muhammad Yusufning she'riy qissasi 2001-yilda bosilgan "Saylanmasi"dan joy olgan. Qodiron Nosirov aynan shu mavzuni kim birinchi bo'lib qalamga olgan? degan haqli savolni o'rta tashlaydi. Shu mavzuda yana bir namanganlik adibi Boqiy Mirzo asar yaratgan, ya'ni "O'tadn oldin o'lgan o'g'illar" nomli hikoya duyoga kelgan. Boqiy Mirzoning hikoyasi 2010-yilda nashrdan chiqqan "Makkoraning qismati" to'plamiga kiritilgan. Bir xil mavzuda va bir xil syujetda uchta adibning asar yozishi adabiy jarayonda uchrab turadigan hodisadir. Qodiron Nosirov izlanishlarini davom ettirib, yangi-yangi ma'lumotlarni to'plagan. Shoir va noshir Ibrohim Mahkamning hikoya qilishiga ko'ra taxminan 1995-yillarda taniqli jurnalist Karimjon Shodiyev aynan shu mavzuda hikoya yozib respublika radiosiga jo'natgan ekan. Bu hikoya eferda o'qib eshittirilgan. Lekin voqea Uchqo'rg'on tomonlarda bo'lgan deyiladi. On hikoyasida voqea To'raqo'rg'onida bo'lib o'tgan deyiladi.

Muhammad Yusuf she'riy qissasida voqea bo'lib o'tgan joy haida hech nima deyilmagan. Shoir qissasini shunday yakunlaydi:

Rivoyatmas aytganim,

Hikmat bo'lmas yolg'ondan.

Bu voqea ro'y berdi,

Shu kun shu zamonda. (48-b)

Bu asarlarga asos bo'lgan syujet mazmuni shunday: biro taxon vafot etganda, janoza paytida imom hujjat asosida haqdor kishi hozir aytsin, mana o'g'illari turibdi. Qarzni uzushni bo'ynilariga oladilar, - debdi. Shunda bir keksa kishi o'rta chiqib: - marhum mendan to'y qilaman, o'g'limni yulantiraman, deb anchagina qarz olgan edi. Qo'limda mana tixati ham bor, - debdi. Uch o'g'l jim turaveribdi. Hech biridan sado chiqmabdi. Hamma sukutda jim qolibdi. Bu gapni eshitib, ming iztirobda, yig'lab turgan yakka-uy yagona qizi ortaga chiqibdi: men shu qarzni qaytarishni o'z zimmamga olaman, - debdi. Fvuj hozir shuncha

mablag'im yo`q, ruxsat bersangiz, uy yumushlaringizni bajarib qarzimni uzim tursam, - debdi yiglab. Qisqacha mazmun ana shundan iborat.

Bunday holat hayotda kam bo`lsa-da uchrab turadi. Yuqorida eslatilgan har to`rt ijodkorning asarlarida juda katta va jiddiy tarbiyaviy ahamiyatiga egadir. Darhaqiqat, xalqimizning azaliy odatlariga ko`ra janozada, albatta yuqoridagi kabi so`roq-savollar takrorlanadi. Har qanday marhumni oxirgi yo`lga kuzatishda janozaga ro`planganlar rozi-rizolik tilashlari kerak. Xullas, bu cyujet asosida qaysi janrda asar yaratilas ham odamlar uchun, avvalo, yoshlar uchun ibrat, o`rnak, tarbiya vositasi bo`lib qolaveradi. Shu sababli ham ko`pchilik ijodkorlar shu mavzuga murojat qilgandirlar.

Essening "Talanti muxlis" nomli bo`limida Muhammad Yusufning kosonsoylik muxlisi, ajoyib she'rsevar fermer a'zamjon Mamajonov haqida hikoya qilinas. Xalq ichidan chiqqan zamonaviy fermer A. Mamajonov "Qoratoj` shabbodalari" nomli fermer xo`jaligining boshlig`idir. U aka-ukalari bilan birgalikda fermer xo`jaligi tashkil qilgan. Dehqonchilik sohasida yuqori natijalarga erishish bilan birgalikda she'riy asarlarni sevib o`qiydi. Ayniqsa, hassos shoir Muhammad Yusufning deyarli hamma mashhur se`rlarini yoddan biladi. Bundan rashqari se`rlarni o`ziga xos ovozda ifodali o`qiydi.

A'zamjon Mamajonov har yili Muhammad Yusuf tugilgan kun 26 aprelda Andijonga shoirning ona yurtiga ziyoratga boradi. O`zining "Damas" mashinasida boshqa muxlislarni ham olib boradi. Uning bunday savobli ishlari ko`pchilikka o`rnak, namuna bo`ladi, desak mubolag`a emas.

Ushbu essening oxirgi "xotima o`rnda" nomli qismida Qodiron Nosirov o`zining bu sohadagi izlanishlariga yakun yasaydi. Muhammad Yusufning Namangandan ketib qilishining asosiy sababi javobsiz qolgan muhabbati sabab bo`lgan deb xulosa chiqaradi olim. Shu o`rinda shoirning 6 bandlik she'rini keltiradi:

Sevar edim sizni, endi suyub netdim,.....

Qodiron Nosirov shoirning "Sevgi sadosi" nomli she'rini ham to`liq keltiradi. Bu she`rda ham Muhammad Yusuf sebgisiga aniqishora bilinib turadi.

Qodiron Nosirovning bu essesi kitobxonlarni juda xursand qildi. Asar haqida ko'plab ijobiy taqrizlar e'lin qilindi. Iliq fikrlar bildiridi. Shu tufayli olim izlanishlarni davom ettirdi. Qodiron Nosirov Muhammad Yusuf haqida yangi-yangi ma'lumotlarni to'plaidi. Natijada butunlay yangi tadqiqot dunyoga keldi.

“Muhammad Yusuf namanganliklar nigohida” (monografiya)

Ma'lumki, 2014-yili yurtimizda Muhammad Yusufning 60 yillik yubileyi juda katta tantanalar bilan nishonlandi. Dotsent Qodiron Nosirov mana shu sanaga bag'ishlab ko'rik-tanlov tashkil qildi. Tanlov viloyat miqyosida orkazilgan. Bu tanlovda Muhammad Yusufga bah'ishlangan o'nlab she'rlar, naziralar, portret va haykallar yaratidi. Qodiron Nosirov sevimli shoir haqida yangi asar yozishga kirishdi. Ko'plab talabgorlarning ma'lumotlari yig'ilgan ko'rik-tanlov juda qiziqarli o'tgan ekan. Bu ko'rik-tanlovda asosan talaba yoshlar faol ishtirok etdganlar. Ko'rik-tanlovda yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pgina yosh shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlar ishtirok etganlar. Ayniqsa, Muhammad Yusuf haqida yozilgan she'rlar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Qodiron Nosirov bu asarini monografiy deb atagan. Darhaqiqat, monografiya essegga qaraganda uch barobar katta bo'lgan. Albatta, essedagi ma'lumotlar monografiyaga kiritilgan.

Bu tadqiqot kirish va xulosadan tashqari uch asosiy bobdan iborat. Birinchi bob “Muhammad Yusuf namanganliklar yodida” deb nomlangan va ikki qismga bo'lingan. “Namangan davlat pedagogika institutida” deb nomlangan birinchi qismda avvalgi asarda bayon qilingan ma'lumotlar ham joy olgan. Ya'ni Muhammad Yusufning bir yil davomida zahira talaba bo'lib o'qiganligi, ilk muhabbati bilan bog'liq yangi ma'lumotlar to'ldirilgan holda berilgan.

Birinchi qismda 6 ta surat ilova qilingan. Shuningdek, Muhammad Yusufning kursdoshi Halimaxon nomiga yozgan muvashshahining fotokopiyasi, 1971-yil 31-iyundagi 90 A/C Buyruqdan ko'chirma keltirilgan. Birinchi bobning 2-qismi “Adiblarimiz Muhammad Yusuf haqida” deb nomlangan.

Bu qismda namanganlik ijodkorlar Yoqubjon Ahmadjonov, Umarxon Malhamiy kabi shoirlarning esdalilari bayon qilingan. Shuningdek, NamDU dotsenti Zohidjon Sodiqov, Muhammad Ismoil Sobirovlarning shoir haqidagi xotiralari

tahlilga tortilgan. Zohidjon Sodiqov esdaliklari esseda ham eslatib o'tilgan edi. Bu qismda G'aybullas-Salomning yana bir shogirdi Muhammad Ismoil Sobirovning Muhammad Yusuf haqidagi maqolasi tahlil qilingan. Bu maqola "Oltin qalam" gazetasining 2015-yil 14-aprel sonida "Bodomzordagi suhbatlar" nomi bilan e'lon qilingan edi. Bu qismda publicist va shoir Ravshanbek Mirzaolimovning Muhammad Yusuf haqidagi esdalik maqolasi to'g'risida fikr yuritilgan. Maqola "Yodimga tushdi" nomli elegiga bilan yakunlangan.

Olim aynan shu bo'limda Muhammad Yusufning kosonsoylik sadoqatli muxlisi A'zamjon Mamajonov haqida alohida to'xtalib o'tgan. Aslida A'zamjon Mamajonov Muhammad Yusuf bilan shaxsan tanish bo'lmagan. Ammo Muhammad Yusufning mashhur she'rlarining hammasini yoddan biladi, ifodali o'qiydi. Har yili 26-aprelda Muhammad Yusuf tug'ilgan kuni Andijon viloyat Marhamat tuman Qovunchi qishlog'iga ziyoratga boradi. Maxsus avtobus tashkil qiladi va Muhammad Yusuf muxlislarini ham ziyoratga olib boradi. Keyingi yillarda A'zamjon Mamajonov bir necha yosh shoirlarning to'plamlarini nashr etilishiga homiylik qildi. Masalan, Obidxon Mamadaliyev, Abdulaziz Muboraklarning she'riy kitoblari hamda "Kosonsoy chechaklari" nomli almanaxni eslash kifoyadir.

Monografiyaning 2-bobi "Ilmiy va badiiy to'lqinlar" deb nomlangan hamda mo'rt bo'limdan tashkil topgan. "Bir syujet izidan" deb nomlangan 1-faslida bir oldingi bo'limda eslatib o'tganimizdek, ota vafori bilan bog'liq voqeaning badiiy ifodasi tahlil qilingan.

Bobning "Namangan nazmida Muhammad Yusuf obrazi" deb nomlangan 2-faslida Namanganlik ijodkorlar tomonidan shoirga bag'ishlab yozilgan she'rlar to'g'risidabahs yuritilgan. Odiljon Nosirov Muhammad Yusuf haqida she'r yozgan Namanganlik mualliflarni shartli ravishda 2 ga bo'ladi, ya'ni kattalar va yoshlarga umuman olganda, Muhammad Yusuf ijodi, ayniqsa, uning favqulotda vafoti kattayu yosh ijodkorlarni baravar qayg'uga solganligi haqiqat.

Olim avvalo kattalar nazmidida Muhammad Yusuf madhiga e'tiborini qaratadi.

Mazkur fasl Boqiy Mirzoning “Yolgʻon emas ” sheʼrining tahlili bilan boshlanadi. Muhammad Yusufning kitobxonlar sevib oʻqiydigan atoqli xonanda Gʻiyos Boytayev ijrosida haddi aʼlosiga yetkazib kuylangan “Samarqandga borsam men agar” qoʻshigʻiga asos boʻlgan sheʼriga taʼsirlanib yozilgan ekan bu sheʼr.

“Chirqiraydi bobolarning arvohlari,
Shohizinda, Goʻri Amir hamrohlari,
Xarobasi shohlarimning gunohlari,
Ulugʻbekning yigʻlagani yolgʻon emas!” (59-bet)

Keyingi fikr-mulohazalar atoqli jurnalist va shoir Ravshanbek Mirzaolim Muhammad Yusufni xotirlab yozgan “Yodimga tushdi” nomli sheʼri haqidadir. Biz bu sheʼrni oldingi fasllarda toʻliq keltirganmiz.

Olim Abdurahmon Kamolovning “Sheʼriyat osmonida yongan yulduzim” nomli sheʼrini tahlil qilish bilan fikrlarini davom ettiradi.

Armonlarga toʻlib yurak alam yigʻlar,
Kecha-kunduz qogʻoz birla qalam yigʻlar,
Qabringizga kuzatib qizgʻaldogʻini
Hajringizda mayus tortgan dalam yigʻlar. (60-bet)

Kattalar qatorida keltirilgan Zulfizar Oʻlmasovanning “Muhammad Yusuf oʻlmagan” nomli sheʼri ham diqqatga sazovor.

Atoqli shoir Yoqubjon Darmonovning “Dili kiyikvash siymo” nomli sheʼri tadqiq qilingan. Shoir Muhammad Yusufning xalqparvarligini, mehribonligini juda goʻzal misralarda ifodalay olganligini alohida taʼkidlaydi, olim.

Ana sen... Muxlisga liq toʻla saroy,
Xohlasang, ming yelka taxt-ravoning,
Maʼyussan... kirishga aqcha opolmay,
Turgan bir oʻsmirga achishib joning. (62-bet).

Sheʼrning davomida ham Muhammad Yusufning timsolini ochishga xizmat qiladigan misralar bitilgan. (62-bet)

Namanganlik atoqli shoirlardan biri Yoqubjon Ahmadjonov gʻurur va muhabbat bilan Muhammad Yusuf ukam deb atagan ekan. Shoir hech ikkilanmay

Muhammad Yusufni “Navoiy bosh boʻlgan ulugʻ bir safda” koʻrganman,-deb yozdi. Shuningdek, dunyga dongʻi ketgan avar shoiri Rasul Hamzatovga qiyoslaydi: (63-bet)

Bu fikrlarda jon borligini olim quyidagicha taʼkidlaydi: “Darvoqe, Muhammad Yusufni asul Hamzatov bilan uchrashganda, Dogʻistonning hassos shoiri yosh oʻzbek hamkasbining sheʼr oʻqishini tinglab; Sheʼrni oʻzimday oʻqirkansan!- den maqtagan ekan”. (64-bet)

Bundan tashqari, Muhammad Yusuf va Rasul Hamzatov ijodi oʻrtasida maʼlum mushtaraklik borligi ham ularning bir xil nomlangan “Turnalar” asari misolida eʼtirof etilgan. (64-bet)

Taniqli jurnalist va shoir Muhammad Valining “Dard guli” sheʼri haqida ham iliq taassurotlar berilgan:

Shoir xalqi sheʼr deganda qul boʻladi,
Qulni ursang, erk tugʻilar qul dardidan.
Soʻzni oʻpsang har bir harfi gul boʻladi,
Gulni ursang, sheʼr tugʻilar gul dardidan. 64-bet

Shikasta hol sheʼr nasimi yelaverar,
Xabar olib qalbning pinhon yerlaridan,
Rayxon hidi, olma hidi kelaverar,
Koʻzga surtsam, otdoshimning sheʼrlaridan. 65-bet

Muhammad Vali sheʼrining oxirgi misralari, meningcha, Muhammad Yusuf muxlislari dilida allaqachon paydo boʻlgan, lekin hali munosib taʼbirini topib ulgurmagan fikrni Muhammad Yusufcha soda ifodalaydi. 65-bet

Nosir Abbosning “Qizgʻonmagin koʻkingdan” nomli sheʼrida ham Muhammad Yusufdagi yetakchi fikr-timsollarni shoir hayotining baʼzi jumboqlarini oʻziga xos poetik usullarda tahlil etuvchi satrlar mavjud.

Filolog oʻqituvchi Kenjaxon Mamarahimova Muhammad Yusufning maʼnaviy-esteʼtik idealini, orzu-umidini boshqa koʻpchilik mualliflarga qaraganda chuqurroq anglagan. Bundan tashqari, olamdan oʻtgan shoirga boʻlgan el sogʻinchini ham

sodda, ayni paytda, bu yo`qotish har birimiz uchun shaxsiy musibatday ifodalangan:

*Dala, dashtda yalpizlar,
Bog`da rayxon yig`ladi.
Shoir sevgan butun olam,
Tog`da jayron yig`ladi,
Muhammad Yusuf orzu qilgan
Hayo qoldi, or qoldi.
Erta ketgan o`g`lin qo`msab
El qoldi, diyor qoldi.
Taqdir ishiga chora yo`q,
Ming bora qilsak taassuf
El hamisha duodadur-
Jannati Muhammad Yusuf!*⁸ 66-bet

*Ohu yig`lar tog`lar boshida,
Kapalaklar ucholmay qoldi.
Bulutlar bo`zlar tog`lar qoshida,
Momaqalldiroq uvvos soldi.* Bu misralar yoshlar qatorida birinchi bo`lib tilga olingan Nilufar Mamasidiqovanning “Ohu yig`lar” she`ridan olingan.

Iste`dodli shoira Rislig`oy Hotamovanning she`ri ham My lirikasi tabiat bilan, o`t-o`lanlar bilan chambarchas bog`liq ekanligini eslatad:

*Titramagin qizg`aldoq, yig`lamagin binafsha,
Yalpiz, buncha mayussan, mittigana yurakcha.
Qanch dardkash qidirib, yig`layapti muhabbat,
Sendan battar mo`ltirab titrayapti muhabbat.* 67-b

“Diydor qiyomattadur” she`ridan olingan bu parchaning davomida Myning sehrli kuchi beqiyos ekenligi yorqin bo`yoqlarda ifodalangan:

*Takrori yo`q mehrning, jilovi yo`q sehrning,
Sohibini men hajar sahrosidan izladim.*

⁸ Bu she`r shohsanam Ermanbetovanning “” Shoir ketdi... qirlarda” she`ridan olindi 66-bet

Iste'dodli shoira Shogsanam Ermanbetovanning "Suv bo'yida yig'ladi yalpiz" nomli she'rida ham Muhammad Yusufning tabiat bilan bog'liq obraz yaratish borasida benazir san'atkor ekanligi o'zining yorqin ifodasini topgan:

Nurlar yogymish – harorat yovq,

Yo 'q bulbullar kuyin ma'nosi.

Hidlarini kimga chocharkin,

Gulgun rayhon – gullar ra'nosi.

Qodirjon Nosirov keying sahifalarda iste'dodli shoira, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining sohibasi, "Namangan" nashriyotining muharriri Benazir (Gulchehra Zokirova)ning chiroyli tashbehlarga boy "Nazira" she'rini tahlilga tortgan.

Tog'lardek purviqor shoirlar,

Tuproqday hokisor shoirlar,

Kelar turna qatoq shoirlar,

Kuraklarda Muhammad qolur,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Osmonlarni joylab ko'ziga,

Yulduzlarni joylab so'ziga,

Bizlarni rom aylab o'ziga,

Benazirning Muhammad so'ziga muhabbat so'zini qofiya qilishiga e'tibor qaratar ekan, olim bunday fikr S. Ermanbetovada ham uchrashini ta'kidlaydi:

Shundoqqina egiz bu so'zlar:

Muhabbatga o'xshar Muhammad.

Bu fikrlarni yana bir namanganlik iste'dodli shoira, zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Mehniroz Abbosova ham muvaffaqiyatli davom ettirganligini Qodirjon Nosirov alohida ta'kidlab o'tganlar:

Uyg'onsin go'dak hislar,

Muhabbatlar uyg'onsin.

Har o'zbekning ko'ksida

Muhammadlar uyg'onsin! (70-bet)

Mehnirozning ta'birida "Muhammadlar – bu xalqqa muhabbatli o'g'lonlar". (70-bet)

Qodirjon Nosirov atoqli shoir Temur To'raboyev (Temur Bek)ning alletiratsiya usulida yozilgan "Marhamat" she'riga ham e'tibor qaratilgan:

Ma'noning mujassami maktabdur,

Marhamatning marhamati Muhammad.

Temur Bek hra bir so'zi "t" tovushi bilan boshlanuvchi ikki jildlik "Teorema" romanini nashr qildirganligini eslasak, yuqoridagi "Marhamat" nomli she'rning tug'ilishi tabiiy ekanligini bilib olamiz.

Namangan nazmida yaratilgan Muhammad Yusuf obrazini o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlarini olim ikki sahifali xulosalarida mujassamlashtirgan.

Monografiyaning II Bobning 3 – fasli "G'amdek shirin sevinch tuy'ular ifodasi" deb nomlanadi.

Muhammad Yusuf nazmida mehr-muhabbat mavzusi.

Bu fasldagi fikr-mulohazalarini olim atoqli adabiyotshunos Adhambek Alimbekovning "Latif she'riyat. Muhammad yusuf ijodiy portretiga chizgilar" nomli risolasida bildirilgan fikr – mulohazalar tahlili bilan boshlaydi. Qodirjon Nosirov Muhammad yusuf ijodida kuylangan muhabbat mavzusi tahliliga alohida fasl ajratgani bejiz emas. Zero, badiiy ijodda muhabbat mavzusi hamisha yetakchi bo'lib kelgan. Ya'ni aytish mumkinki, o'lmas mavzulardan biri bisoblanadi. Muhammad yusuf ijodini ham muhabbat mavzusidan tashqarida talqin qilib bo'lmaydi. Bu mavzu hassos shoirimiz Abdulla oripov ijodida ham boshqa adiblar ijodida ham yetakchi, asosiy mavzu bolib kelganligi, tabiiy. Muhammad Yusuf ijodida ham muhabbat mavzusida bitilgan she'rlar yuzlab miqdorni tashkil etsa ajab emas. Olim shoirning juda ko'p she'rlarini eslaydi. Masalan,

Qodirjon Nosirov Muhammad yusufning rafiqasi Nazira as-Salomga bag'ishlab yozgan she'rini ham tahlilga tortgan. Sevgi – muhabbat mavzusida ming yillardan buyon yozib kelingan bo'lsa ham Muhammad yusuf o'ziga xos iste'dodi bilan yangi – yangi, ilgari boshqa shoirlar atymagan fikrlarni badiiy ifodasini topa oldi. Bu she'rlarning aksariyat qismi hijron bilan bog'liq ekanligi

e'tirof etilgan. Ayniqsa, olimning ta'kidlashicha: "Ilk sevgi ijodi Muhammad Yusuf uchun iztirobli ilhom parisiga aylanib qoldi...Ha, ilk muhabbat dramasi shoir lirikasida yorqin, har qanday o'quvchini ham befarq qoldirmaydigan sahifa bo'lib qoldi", - deb fikrini davom ettiradi Qodirjon Nosirov.

Olim Muhammad yusuf ishlatgan yangi-yangi tashbehlarni, o'xshatishlarni, umuman, badiiy san'atlarni tahlil qilish orqali shoirning o'ziga xosligini ochib bera olgan, deb bemalol ayta olamiz. Muhammad yusufning sevgi haqidagi she'rlari boshqa ijodkorlarning asarlaridan farq qilishini olim yorqin va xarakterli misollar orqali ochib bera olgan. Balki shuning uchun shoirning she'rlarini xalqimiz sevib o'qisa kerak.

Shu o'rinda Muhammad yusuf "Sevgim mening..." she'ri haqidagi fikrlar o'rinli deb hisoblaymiz.

Muhabbat, muhabbat, ilohiy (79-bet)

Shoirning ayrim adiblarimiz asarlari ta'sirida yozgan she'rlari ham muhabbat mavzusiga bog'lanishi misollar yordamida yoritilgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani qahramonlari Kumush va Zaynab haqidagi she'rlarini aytib o'tishimiz mumkin.

Kumush va Zaynab obrazlariga shoir bir_ necha asarlarida murojaat qiladi: "Sodda Muhammadning ", "Kinoga bormayman", "Zaynab qo'shigi", "Bibi", "Otabek qo'shiug'i, "Kumush" kabi she'rlarga alohida to'xtalib o'tilganligi diqqatga sazovordi.(80-6 bet)"

Ko'zimni yumaman, kulgichlari yayrab,

Kumush bolasiga ro'molcha to'qir.

Keyin ichkaridan – ming yil naridan

Zaynabning nigohi jonimni cho'qir. (81-bet)

Muhabbat mavzusidagi she'rlarda xalq og'zaki ijodida qo'llanadigan syujetlarga murojaat ham uchraydi.

Masalan, "Tohir va Zuhra" haqidagi afsonalarda hikoya qilinishicha Tohirni sandiqqa solib oqizish epizodi bor. Shoir shu voqeaga ishora qilib, "Tillo sandiq" she'rini yozgan (82- bet)

Baland jordan tashlandi,...

Jayron bo'ldi muhabbat.

Qodirjon Nosirovning yozilishicha Muhammad Yusuf folklordagi va yozma adabiyotdagi Tohir, Zuhra, Layli, Zaynab kabi obrazlarga murojaat qilishdan tashqari tabiat manzaralariga, birinchi navbatda gul chechaklarga ham mehr ko'rsatgan.

Muhammad Yusuf she'riyatidagi yetakchi mavzu muhabbatning serqirra ko'rinishlarini ifodalashda qizg'aldoq timsoli ayniqsa muhim o'rin tutadi, - deb yozadi Qodirjon Nosirov. Olim bu haqidagi fikr – mulohazalarini davom ettirib: “Qizg'aldoq” timsoli Muhammad Yusuf asarlarida ko'zga o'zgacha tashlanadi.” Uning “Saylanma” sida (2005, Sharq) 16 ta she'rda Qizg'aldoq (Lolaqizg'aldoq) lirik qahramonning turli ruhiy holatini, kayfiyatini ifodalab boruvchi vosita – u goh erksizlik, gohi bahor fasli inson qalbiga tashrif buyuradigan nozik sevgi hissi, goho esa hasta qalbga yagona sirdosh ramzi sifatida namoyon bo'ladi, boshqacha ma'nolarda ham uchraydi, - deb ta'kidlaydi. (84-bet)

Bahorda ko'p og'ir,

Qiqirlab tursa –

Tizzangga suykalib lolaqizg'aldoq,

Beg'ubor yoshliging o'tgan joylarda.

Qo'ltiq tayoq bilan hakkalab yurmoq,

Ko'p og'ir, beg'ubor qorlar yoqqanda,

Qishda, dala-dashtga qo'nganda tuman,

Sotqinga tegmagan o'qni siypalab,

Urushni eslamok, sandaldan chiqmay,

Xokisor, vafodor xotining bilan.

Qodirjon Nosirov “Vafodor xotin” mavzusi lolaqizg'aldoq obrazi bilan bog'liq va bu obraz rivojining cho'qqisi – “Lolaqizg'aldoq” she'ri, - deb yozadi. Bundan oldin yozilgan “Qizg'aldoq” she'rida shoir shunday yozgan:

Oldinga men borolmasam o't gunohim,

Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im,

Qalbm uzra hilpirab tur qizg'aldog'im,

Muhammaddan bo'lak do'sti devonang yo'q. (89-bet)

Hayotni ancha erta tark etgan hassos shoir Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlab yozilgan "Lolaqizg'aldog'" she'ri monografiyada alohida tahlil qilingan. Olim bu she'r shoirning oila a'zolariga, singlisiga, turmush o'rtog'iga, qizlariga vasiyatnomadek taassurot qoldiradi, - degan fikrni ilgari suradi.

Darhaqiqat, she'rni o'qigan kitobxon shoir bu she'rini biror bir kishining xotirasiga bag'ishlab yozilganini sezmaydi. Muhammad Yusuf taqdirini xuddi oldindan bashorat qilganday tuyuladi. (90-bet) she'rni ko'chiramiz

Qodirjon Nosirov Muhammad Yusufning muhabbat mavzusidagi she'rlariga xos bo'lgan xususiyatlarni umumlashtiradi. Shoir badiiy mahorati bilan bog'liq xususiyatlar xalq maqollarini qo'llashida ham yaqqol ko'rinishini ta'kidlaydi.

Monografiyaning III-bobning 4-fasli. "Muhammad Yusuf she'riyati journalist va pedagoglar talqinida" deb nomlangan bo'lib, turli yillarda shoir xotirasiga bag'ishlab yozilgan maqolalar tahlil qilingan.

Dastlab olim namanganlik iste'dodli shoira va journalist Nodira Abdullayevaning 2003-yil 12-fevralda "Suhbatdosh" gazetasida shoirning rafiqasi Nazira as-Salom bilan qilgan suhbatini tadqiq etgan. Bundan keyin o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilari Naima G'aniyeva bilan Munavvar Mirzahakimovalarning "Ertakchi – repetitor" gazetasining 2007-yil 6-sonida chop etilgan "Muhammad Yusufning yangi she'ri" nomli maqolasini tahlilga tortgan. Bu maqolada shoirning opasi Gulchehra Turdiqulova tomonidan muallimalarga taqdim etilgan she'r haqida fikr yuritilgan. Maqola oxirida mana shu "Namangan" nomli she'r to'laligicha keltirilgan ekan. 2004 –yil nashr qilingan shoirning "Ulug'imsan, Vatanim" to'plamida "Shaharlar madhi" degan bob mavjud. Bu bobda bir necha shaharlar haqidagi she'rlar joy olgan. Ammo ular orasida "Namangan" she'ri yo'q. Demak, bu she'r birinchi marta keng ommaga 2007-yil ma'lum bo'lgan. Qodirjon Nosirov shu o'rinda "Ertakchi – repetitor" gazetasida

Muhammad Yusufning avvallari e'lon qilinmagan yana bir she'ri bosgan ekan. Bu she'rning nomi shartli ravishda "Ko'nglim sezar..." deb nomlangan. Mazkur she'rni ham Muhammad Vali e'lon qilgan. 1990 –yilda yozilgan bu she'r oldin hech qayerda e'lon qilinmagan edi. She'rni to'liq keltirishni lozim topdik:(96-bet)
Demak o'shalar – chun mendan qarzdorsiz.

"Namangan haqiqati" gazetasining muhbiri Gulchehra Buvamirzayevaning 2 ta maqolasi tahlil qilingan. "Yorilmay yashgan yurak yurakmi?" birinchi maqola bo'lsa, "El e'zoi" ikkinchi maqola hisoblanadi. Har ikkalasi ham "Namangan haqiqati" gazetasida bosilgan. "Muhammad Yusufdek shoirlari bor xalq juda ham baxtli. Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Hamza Hakimzoda Niyoziydek farzandlari bor yurtning ertasi porloq", -deb yozadi Gulchehra Buvamirzayeva. Namangan shahridagi 7 –maktab o'qituvchisi Go'zalxon Mamajonovanning "Muhammad Yusuf ijodida ona mavzusi" nomli maqolasi 2014-yil 7-martda "Namangan sadosi" gazetasida bosilgan. "O'zbekmomo", "Oq ro'mol qizlar" nomli she'rlarini tahlil qilingan. Go'zalxon Mamajonovanning "O'zimizning Muhammad Yusuf" nomli maqolasi ham "Namangan sadosi" gazetasida bosilgan. Muallif Muhammad Yusuf she'rlari haqida shunday yozadi: "Mening nazarimda, Muhammad Yusuf she'rlarini boshqa tillarga tarjima qilib bo'lmaydi. Yo'q, tarjima qilib bo'lar, ammo tarjimada uning she'rlaridagi har satrga singgan millatimizgagina xos soddalik, samimiylik, chapanilikni ifodalab bo'lmaydi. Chunki Muhammad Yusuf o'zbekning shoiri, u bizning sodda Muhammad."

Faxriy o'qituvchi Kenjaxon Mamarayimovanning Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusiga bag'ishlangan maqolasi "Vatan ishqidan yaralgan she'riyat" deb nomlangan.

Namangan viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining o'qituvchisi Akramjon Husaynovning "Erkning erka elchisi" nomli maqolasi ham "Ertakchi – repetitor" gazetasining 2015 –yil 14-aprel sonida bosilgan.

Akramjon Husaynovning yana o'rinli ta'kidlashicha, Muhammad Yusuf vatan haqida boshqalar kabi yozmaydi: "Shoir Vatanni og'riqlari bilan yaxshi ko'radi".

Va yana qo'shimcha qiladi: "Ta'bir joiz bo'lsa, "Vatanim" she'ri Vatan haqidagi she'rlarning shohi darajasiga ko'tarildi." 101-bet

Monografiyaning 103-sahifasida Muhammad Yusufning "Namangan" she'ri to'liq keltirilgan. Bu she'r haqidagi tadqiqot, maqolalar ham olim kuzatishlaridan chetda qolmaganligi diqqatga sazovordir. Birgina shu she'rning yaratilish tarixiga bag'ishlangan sahifalar salmoqli. Jami o'n betdan iborat. Aytish mumkinki, Qodirjon Nosirov bu she'r tarixi, e'lon qilinishi, she'r haqida bildirilgan fikr – mulohazalarning hammasidan xabardor. Barcha ma'lumotlarni hijjalab, sinchiklab o'rganib chiqqan. O'zining erinmas va zahmatkash olim ekanligini isbot qilgan.

Monografiyaning III bobi "Muhammad Yusuf lirik lahzalarda" deb nomlangan va uchta faslga bo'lingan. Bobning 1-fasliga "Nazira va maqolalarda" deb nom berilgan. Qodirjon Nosirov Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlab o'tkazgan ko'rik –tanlavda 13 ta nominatsiya bo'yicha 300 ga yaqin asarlar taqdim etilganligini ko'ramiz. Shundan 2 ta nominatsiya "Muhammad Yusuf asarlariga nazira", "Muhammad Yusufga bag'ishlangan ilmiy ommabop maqola" deb nomlangan.

Mavlon Abdusamatov, To'xtamirza To'rayev, Zarnigor Rahimjonova, Maftuna Abdulhayeva kabi talaba yoshlarning she'rlari tahlil qilingan.

Maftunaning she'ri Muhammad Yusufning Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani haqida yozgan she'rlariga nazira sifatida yozilgan.

"O'tkan kunlar" – o'tgan kundir,

Xalq balchiqqa botgan kun.

Peshonaga bitgan kundir,

Cho'lponga tosh otgan kun.

O'zbeqingni, o'zligingni –

O'zni yo'qotgan kun.

Qodiriydan kechgan kundir,

Qodiriyni sotgan kun. (116-bet)

Shuningdek, Qodirjon Nosirov Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan maqolalarni ham xarakterli jihatlarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Monografiyaning III bobning 2-fasli “Tarjimalarda” deb nomlangan. Qodirjon Nosirov tashkil qilgan iqtidorli talaba yoshlarning “Lirik lahzalar” nomli klubi a’zolari Muhammad Yusuf she’rlarini rus tiliga tarjima qilishga kirishganlar.

Klub a’zosi Antonina Iplina, Roza Kazakbayeva kabi iste’dodli tarjimonlar dastlabki tarjimalarni amalga oshirdilar. Olim tarjimalarning qimmatini ko’rsatish maqsadida she’rlarning asliyati bilan solishtirgan.

Shu bobning 3-fasli “Tasviriy san’atda” deb nomlangan. Bu faslda rassomlar va haykaltaroshlar tomonidan ishlangan asarlar to’g’risida batafsil ma’lumot berilgan. Chortoqlik kollej talabasi Hayitmirza Yoqubjonov tomonidan ishlangan “Muhammad Yusuf” va “Shoir” nomli buyustlarning badiiy jihatlarini tadqiq etgan.

Atoqli rassom Alijon Turdialiye’vning “Muhammad Yusuf” portretiga alohida urg’u bergab va aynan shu portretni monografiyaning muqovasuga joylashtirgan.

Monografiyaning xulosalar qismi ham ancha salmoqli. Ilovalar qismida she’rlar, tarjimalar, suratlar berilgan.

Bir so’z bilan aytganda, Qodirjon Nosirovning ushbu monografiyasi Muhammad Yusuf ijodiy biografiyasini o’rganishda juda katta ahamiyatga ega tadqiqot hisoblanadi.

II Bob. Qodirjon Nosirovning ijodiy faoliyati.

2.1. Qodirjon Nosirovning hikoyalari tahlili.

Qodirjon Nosirov badiiy ijod bilan bir muncha kechroq, aniqroq qilib aytganda, ayni ilmiy, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan ellik yoshida shug'ullana boshlagan.

Dastlabki hikoyasi “O'jar” nomi bilan 1997-yil 27-iyunda “Suhbatdosh” gazetasida chop etilgan. Bu paytda Qodirjon Nosirov ellik yoshga to'lgan yetuk olim, tajribali pedagog edi. Birinchi qadam qutlug' keldi. Bundan ruhlangan Qodirjon Nosirov ketma –ket yangi hikoyalar yozdi. “Namangan sadosi” gazetasida “Skripka”, “Umid” nomli hikoyalari bosildi. 1998 –yil “Suhbatdosh” gazetasida “Yetti kishilik sabzi” nomli hikoyasi e'lon qilindi. Keyingi yil xuddi shu gazetada Qodirjon Nosirovning “Ta'zim” nomli hikoyasi bosildi. Aytish mumkinki, 1998-yil domla uchun omadli, sermahsul yil bo'ldi. Shu yili uning ilk asari bo'lmish “Muhabbat”dan parchalar “Xalq irodasi”, “7 kun” gazetalarida e'lon qilindi.

2000-yilda ham Qodirjon Nosirov sermahsul ijod qildi. Shu yili uning “Oyni ko'rmagan o'qituvchi”, “Zolim podsho, dishmand chol va uning rahmdil o'g'li”, “Kuz”, “Kim o'jar”, “Keling bir qahvalashaylik”, “Shingil tabassum” hikoyalari bosildi. Qodirjon Nosirov rus tilida ham hikoyalar yozdi.

2013-yilda qissa va hikoyalar to'plami “O'gay qaldirg'och” nomi ostida chop etildi. Umuman, Qodirjon Nosirov 40 dan ortiq hikoya va qissalar yozgan. Domla har ikki tilda: o'zbek va rus tillarida ijod qiladi. Aytish mumkinki, Qodirjon Nosirovning hikoya janridagi asarlari hayotiy voqealarga asoslangan. Shuning uchun ularda tarbiyaviy ahamiyatga molik jihatlar bo'rtib ko'rinib turadi. Qodirjon Nosirovning ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida, avvalo, o'zi ko'rgan – bilgan, ishtirok etgan voqea hodisalardan badiiylik topadi. Qolaversa, eshitgan-uqqan narsalaridan ham badiiy umumlashmalar yaratadi.

Qodirjon Nosirovning “O'gay qaldirg'och” to'plamiga jami 22 ta hikoyasi, “O'gay qaldirg'och” qissasi, 7 ta publisistik hikoyasi, 14 ta tarjimasi kiritilgan.

“Muhabbat” nomi bilan yozilgan ayrim parchalari gazetalarda bosilgan qissasi “O’gay qaldirg’och” deb o’zgartirilgan.

Qodirjon Nosirovning hikoyalari haqida gapirganda, bir so’z bilan tarbiyaviy – axloqiy ahamiyatga molik asarlar deyish mumkin. Domla hayotdagi voqea – hodisalarga avvalo pedagog-tarbiyachi nigohi bilan qaraydilar.

Har qanday ta’sirli voqeadan tarbiyaviy xulosa chiqaradi va uni badiiylashtiradi. Aslida, Sharq adabiyotida ana shunday axloqiy mazmundagi asarlar yozish an’anaviy tus olgan, odatga aylangan hol edi.

2. 3. Tarjimonlik faoliyati.

Qodirjon Nosirov pedagogik faoliyatini badiiy asarlar yozish bilan birgalikda muvaffaqiyatli olib borayotgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Hozirga qadar 40 dan ortiq hikoyasi, ikkita qissasi viloyatimizda va markaziy gazeta-Jurnallarda e'lon qilingan. Ustozning rus tili va adabiyotini mukammal bilishi ikki tilida ijod qilish imkoniyatini tug'dirganki, bir nechta hikoyalarini rus tilida yozgan. Uning qissa va hikoyalar to'plami "O'gay qaldirg'och" nomi bilan 2013 yilda chop etildi.

Aslida, domlaning badiiy ijodga undagan hamda rag'batlantirgan vosita Jahon adabiyotining mashhur namoyondalari qalamiga mansub namunalarni rus tilidan o'zbekchaga, va aksincha, o'zbek adabiyoti namunalari rus tiliga mahorat bilan tarjima qilganligi deb hisoblaymiz. Bunga bizning to'la asosimiz bor, chunki domla badiiy tarjimani o'tgan asrning 80-yillarida boshlagan bo'lsa, badiiy ijodga esa oradan o'n yil o'tib qo'l urganligi ma'lum.

Qodirjon Nosirov tarjimonlik faoliyatini mashhur rus yozuvchisi Nikolay Karamzinning "Baxti qaro Liza" qissasini o'zbekchaga o'girishdan boshlagan edi. Mazkur tarjima "Namangan haqiqati" gazetasining 1983 yildagi 20-, 21-, 22-sonlarida e'lon qilinganda domlani do'stlari yangi sohadagi muvaffaqiyati bilan qutladilar va omad tiladilar. Bu rag'batlardan ruhlangan ustoz badiiy tarjima bilan Jiddiy shug'ullandi va hozirga qadar 60 ga yaqin tarjimalarini kitobxonlar hukmiga havola qildi.

Bu tarjimalarning xususiyatlari haqida M.Azizov, D.Haydarova⁹ va Saydumar Saydalievlarning¹⁰ maqolalarida iJobiy fikr-mulohazalarini bildirilgan.

Qo'shni va qardosh xalqlar atoqli adiblarining ijod namunalari o'zbekchaga o'giranligi domlaning adabiiy aloqalar rivojiga qo'shgan katta hissasi, desak mubolag'a emas. Jumladan, boshqird adibi Mustay Karimning "Qorboboning bolaligi", "Alfiya va chug'urchiq", "Endi qayoqqa boraman?"

⁹ M.Азизов, Д.Ҳайдарова. Моҳир таржимон. / Маънавият сарчашмалари. "Наманган" нашриёти,, 2009

¹⁰ Сайдалиев С. Китоб – мулоқот воситаси (Честерфилднинг "Фарзандга мактублари мисолида") // Маҳорат мактаби, 23.06. 2013.

hikoyalar¹¹, mashhur qozoq shoiri Abay hikmatlaridan namunalar¹², avar shoiri Rasul Hamzatovning “Mening Dog`istonim” asaridan “YAgona shoir haqida rivoyat”, “Uch ovchi va bo`ri”, “Vatan dardi”, “Haqiqatning ixsak parvozi”¹³, bolqor shoiri Kaysin Kulievning “Siz”¹⁴, arman adibi Avetik Isaakyaning “Iblis va uning qizlari”¹⁵ kabi qiziqarli asarlarni tarjima qildi.

Qodirjon Nosirov badiiy ijodning murakkab hisoblangan bu sohasida erishgan iutuqlaridan ilhomlanib, Jahon adabiyotining mashhur vakillari asarlarini dadil o`g`irishga kirishdi. NatiJada, mashhur arab yozuvchisi Abul FaroJning bir necha qiziqarli hikoyatlarini o`zbekchaga tarjima qildi<sup>16</sup> va vaqtli matbuot nashrlarida e`lon qildi. E`tiborli Jihati shundaki, 2016 yilda “O`zbekiston” nashriyoti bu hikoyatlarni alohida kitob holida nashr etish maqsadida ustoz bilan shartnoma imzolashni taklif qilgani bo`ldi. NatiJada, bir necha yillar davomida amalga oshirilgan tarjimalar Toshkentda bosildi.¹⁷

Bunga o`xshash voqea ingliz adibi Chestyrfildning “Farzandga maktublar” asarining tarjimalari bo`yicha ham iuz byerganidan xabarimiz bor edi. Dastlab bu tarjimalar “Jahon adabiyoti” Jurnalida e`lon qilingan.<sup>18</sup> Cho`lpon nomidagi nashriyotda kitob holida chop etildi. Keyin “Farzandga maktublar”ning ikkinchi nashri Cho`lpon nomidagi nashriyotda chop etildi.¹⁹

Mashhur chex yozuvchisi Karel Chapekning “Bir hamyondan chiqqan hikoyalar” turkumiga kiruvchi “Dastxat siri”, “Folbin”, “Doktor Meyzlik

¹¹ Мустай Каримнинг “Қорбобонинг болалиғи”, “Алфия ва чуғурчиқ”, “Энди қаяққа бораман? // Наманган ҳақиқати, 30.12.1986.

¹² Абай ҳикматлари. // Наманган ҳақиқати, 1995, 30 авг.

¹³ Расул Ҳамзатов. Ҳақиқатнинг юкса парвози. // Болалар дунёси, 22.06.02;

¹⁴ Кайсин Кулиев. “Сиз” // Наманган ҳақиқати, 10.10.2015.

¹⁵ Авetik Исаакян. “Иблис ва унинг қизлари” // Наманган ҳақиқати, 10.10.2015.

¹⁶ Абул Фароҳ. Ҳасислик тўғрисида. “Ғаройиб ҳикоятлар”дан. // Умид, 1999, №21.. “Ғаройиб ҳикоятлар”. // Диёнат, 1998, 16, 29 сентябрь; Сухбатдош, 2001, 2002, 2003 йиллар давомида; Шифокор ва ҳаёт, 2001, 27 сентябрь, 2002, 1-15 июнь.

¹⁷ Абул Фароҳ. Ҳикматлар. Ҳикоятлар. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016.

¹⁸ Честерфилд. Фарзандга мактублар. // Таржимон, 1999 йил давомида; Жаҳон адабиёти, 2004, №3;

¹⁹ Честерфилд. Фарзандга мактублар. Тошкент, Чўлпон номли нашриёт, Тошкент, 2008

sarguzashti”, “Guvoh shoir” kabi hikoyalarini o`zbekchaga o`girib, “Jahon adabiyoti” Jurnalida e`lon qildi.²⁰

Detektiv asarlari bilan dunyo kitobxonlarini o`ziga rom etgan Agata Kristining asarlaridan ham namunalar tarjima qilganligini alohida ta`kidlashimiz mumkin.²¹

Ustoz keyingi yillarda antik davr faylasuflarining bir necha tarixiy asarlarini ham muvaffaqiyat bilan o`zbekchaga tarjima qildi. Masalan, qadimgi yunon tarixchisi Plutarxning “Qiyosiy tarjimai hollar” kitobidan “Aleksandr va Qezar”<sup>22</sup>, qadimgi Rim olimi Senekaning “Hikmatli maktublar”<sup>23</sup>, singari asarlarini o`zbekchalashtirdi.

Bulardan tashqari rus yozuchilaridan Maksim Gorkiyning “Monna Marianna”, “Amir Temur va ona”, “Saxovat” nomli hikoyalarini, Mixail Kuzminning “Buyuk Iskandar zafarnomasi” kitobini, Vasiliy Shukshin hikoyalaridan tarjimalari ham turli nashrlarda e`lon qilingan.²⁴

Qodirjon Nosirov yuqorida ta`kidlaganimizdek, o`zbek tilidan quyidagi asarlarni rus tiliga tarjima qilgan: Jumladan, A. Jo`raevning “Yurak bo`ronlari” qissasidan parcha²⁵, Isoqjon Nishonovning mashhur “Afg`on shamoli” asarining 1-3-Jildlarini.<sup>26</sup> Qodirjon Nosirovning tarjimalari ro`yxati tuzilgan bo`lib, olimning o`zi yiqqan ma`lumotlardan foydalandik. Havolada shu ro`yxatni keltirishni lozim topdik.²⁷

²⁰ Карел Чапек. «Дастхат сири», «Фолбин», «Доктор Мейзлик саргузашти», «Гувоҳ шоир». // Экспресс инфо, 29.09.2005, 20.10.2005; «Жаҳон адабиёти», 2007, № 6;

²¹ Кристи, Агата. Гувоҳ. // “7 кун” газ, 2005, №23,24, 25, 26, 27-сонлар.

²² Плутарх. “Александр ва Цезарь”. “Қиёсий таржимаи ҳоллар” китобидан. // Наманган ҳақиқати, 8.08.1988; Болалар дунёси, 31.01.2004.

²³ Сенека. “Ҳикматли мактублар”. “Маърифат гулшани”, 2005, 7 июль, “Жаҳон адабиёти” 2006, №7 ; “Шифокор ва ҳаёт”, 2007.

²⁴ М. Горький. Монна Марианна. // Бегойим, 29.09.2005. Амир Темур ва она. Саховат. // Бегойим, 1.09.2005. Михаил Кузмин. Буюк Искандар зафарномаси. // Жаҳон адабиёти, 2012, № 3. В. Шукшин. Ҳикоялар: “Қуёш, чол ва қиз”, . // Маърифат гулшани, 2011, 4 октябрь; Қишлоқ окшоми, 2016, 20 август; “Ўйлар” // Китоб дунёси, 2016, №

²⁵ А. Джураев. «Париж. На сцене «Олимпии». (Отрывок из повести «Юрак бўронлари»). // Наманганская правда, 1996, 21 сентябрь;

²⁶ Исоқжон Нишонов. Чёрное ожерелье. Кисса, нашрга таёрланган. Афганский ветер. Роман, 1-3 қисмлар.

²⁷ 1.С. Шатров. Ҳамқишлоқ (ҳикоя). // Наманган ҳақиқати, 1983, 8 январь. 2. А. Джураев. Он прославлял свой народ. (Отрывок из документальной повести “Юрак бўронлари”) // Наманганская правда, 21.09. 1996. 3. Н.

Xulosa qilib aytganimizda, mohir pedagog, ist'dodli tarjimon Qodirjon Nosirov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, ustoz o'z tarjimalaridan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Jahon adabiyoti tarixi", "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi xalqlari adabiyoti" kabi fanlardan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda unumli foydalanadi. Qolaversa, o'zbek kitobxonlarini Jahonning atoqli adiblari asarlari

Карамзин. Бахти каро Лиза. (кисса). // Наманган ҳақиқати, 1983, 20, 21, 22 сентябрь; Камолот, 1998 й., 11, 25, 28 сентябрь; 9, 23 октябрь. 4. Г. Слезар. Сен Анжелани кўрмагансан (ҳикоя). // Наманган ҳақиқати, 1983, 5 октябрь. 5. Мустай Карим. Қорбобонинг болалиги (ҳикоя). // Наманган ҳақиқати, 30.12.1986. 6. А. Джураев. «Париж. На сцене «Олимпии». (Отрывок из повести «Юрак бўронлари»). // Наманганская правда, 1996, 21 сентябрь; Леди, 7. Мустай Карим. «Қорбобонинг ёшлиги», «Алфия ва чуғурчик», «Энди қаёққа бораман?» (ҳикоялар) // Наманган ҳақиқати, 1986, 30 декабрь; Болалар дунёси, 2005, 31 декабрь, 2006, 14 янв, 28 янв, 6 март, 22 апр. 8. Абай ҳикматлари. // Сухбатдош, 8.08.97; Наманган ҳақиқати, 1995, 30 авг. 9. С. Родионов. Қонунни билиш керак (ҳикоя). // Сухбатдош, 1998, 9 июль. 10. Абул Фараж. Хасислик тўғрисида. «Ғаройиб ҳикоятлар»дан. // Умид, 1999, №21. 11. Плутарх. Александр Македонский ҳақида. «Александр ва Цезарь. Қиёсий таржимаи ҳоллар» китобидан. // Наманган ҳақиқати, 8.08.1988; Болалар дунёси, 31.01.2004. 12. Нараян (ҳикоя). // Сухбатдош, 1998, 13. Абул Фараж. «Ғаройиб ҳикоятлар». // Диёнат, 1998, 16, 29 сентябрь; Сухбатдош, 2001, 2002, 2003 йиллар давомида; Шифокор ва ҳаёт, 2001, 27 сентябрь, 2002, 1-15 июнь, 1-15 июль. Ва яна бошқа бир неча газеталарда. 14. В. Мезенцев. Қора қуюннинг қора ишлари. // Ҳайрат, 17-23 декабрь 1998. 15. В. Мезенцев. Денгиздаги дахшатли махлук. // Ҳайрат, 1998, 24-31 декабрь. 17. Владимир Пушкирёв. Афсонами ёки ҳақиқат. // Таржимон, 8.01.1999. 18. Наполеоннинг қиёфадоши. // Таржимон, 29.01.99. 19. Анатолий Варшавский. Ибодатхона меҳробининг саргузаштлари. // Таржимон, 26.02. 99; 5.03.99. 20. Честерфилд. Фарзандга мактублар. // Таржимон, 1999 йил давомида; Жаҳон адабиёти, 2004, №3; Сухбатдош, 2004 йил давомида; Шифокор ва ҳаёт, 2005-2008 йиллар давомида; Эракчи репетитор, 2010, 2011 йиллар давомида. 21. Иегудиил Хламида. Она. // Камолот, 29.02.2000; Сухбатдош, 2.05.2001; 22. Тимур Зулфиров. Оллоҳ юз ўтирган кишлоқ. Она. («Первая любовь Ходжи Насриддина» китобидаги «Притчи Ходжи Зулфикара» асаридан ҳикоятлар. // Сухбатдош, 2001, 2 май. 23. Честерфилд. Фарзандга мактублар. Тошкент, Чўлпон номли нашриёт, Тошкент, 2008. 24. К. Чапек. Дастхат чирри. // Экспресс инфо, 20.10.05. 25. М. Горький. Монна Марианна. // Бегойим, 29.09.2005. 26. М. Горький. Амир Темур ва она. // Бегойим, 1.09.2005. 27. М. Горький. Саховат. // Сухбатдош. 28. А. Иплина. Бехуда кетган аср. // Гулистон, 2005, №4. 29. Карел Чапек. Ҳикоялар: «Дастхат сири», «Фолбин», «Доктор Мейзлик саргузашти», «Гувоҳ шоир». // Экспресс инфо, 29.09.2005, 20.10.2005; «Жаҳон адабиёти», 2007, № 6; 30. Агата Кристи. Гувоҳ. // 7 кун, 2005, №№23, 24, 25, 26, 27. 31. Сенека. «Ҳикматли мактублар».». «Маърифат гулшани», 2005, 7 июль, «Жаҳон адабиёти» 2006, №7; «Шифокор ва ҳаёт», 2007 йил давомида. 32. М. Горький. Ҳикоялар: «Амир Темур ва она», «Монна Марианна», «Саховат». // Бегойим, 2005, №38, 39. 33. Расул Ҳамзатов. «Менинг Доғистоним»дан: Ягона шоир ҳақида ривоят. // Сухбатдош, 26.02.2003; Уч овчи ва бўри. // Болалар дунёси, 23.02.02; Ватан дарди. // Болалар дунёси, 22.06.2002. // Сухбатдош, 22 июнь 2003, Ҳақиқатнинг юксак парвози. Сухбатдош, 26.02.03. 34. Михаил Кузмин. Буюк Искандар зафарномаси. // Жаҳон адабиёти, 2012, № 3. 35. Исоқжон Нишонов. Чёрное ожерелье. Қисса, нашрга таёрланган. 36. Исоқжон Нишонов. Афганский ветер. Роман, 1-3 қисмлар. Нашриётга топширилган. 37. Николай Гумилёв. Саккизлик. (шеър). // Маърифат гулшани, 2012; Бозор, 2012. 38. В. Шукшин. Ҳикоялар: «Қуёш, чол ва қиз», . // Маърифат гулшани, 2011, 4 октябрь; Кишлоқ окшоми, 2016, 20 август; «Ўйлар» // Китоб дунёси, 2016, 39. Расул Ҳамзатов. «Ўша энди эркакми?» (шеър). // Маърифат гулшани, 40. В. Шкловский. Константин Эдуардович Циолковский. // Тиббиёт ва замон, 2015, №№2, 3. 41. Кайсин Кулиев. Сиз. // Наманган ҳақиқати, 10.10.2015. 42. Аветик Исаакян. Иблис ва унинг қизлари. // Наманган ҳақиқати, 10.10.2015. 43. Михаил Кузмин. Буюк Искандар зафарномаси. «Наманган» нашриёти, 2013. 44. Ҳабиб Сиддик. Третья. Традиционный вопрос. (сатирические рассказы). // Наманганская правда; Кишлоқ окшоми, 2016, 4 август. 45. А. Иплина. Бехуда кетган аср. // Гулистон, 2005, №4. 46. Абул Фароҳ. Ҳикматлар. Ҳикоятлар. Тошкент, «Ўзбекистон», 2016.

47. Ион Друцэ. Ўзликка қайтиш (Ибтидо инжи)

bilan tanishtirishda katta rol o`ynaydi. Shuningdek, ustozning bu sohadagi izlanishlar biz hamkasblarga hamda yosh pedagoglarga namuna bo`ladi.

Umumiy xulosa

Qodirjon Nosirov NamDUda salkam 50 yil davomida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning pedagoglik, ilmiy va ijodiy faoliyati haqida matbuotda va o'nlab to'plamlarda maqola va taqrizlar e'lon qilingan. Ma'lum ma'noda olim ishlariga baho berilgan. Umuman olganda, Qodirjon Nosirov namanganlik adabiyotshunos olimlar oarsida sermahsulligi va ko'p qirrali ijodkorligi bilan ajralib turadi. Qodirjon Nosirov haqidagi ushbu BMI natijalari asosida quyidagi xulosalarni bayon qila olamiz:

- Qodirjon Nosirov mahoratli va tajribali murabbiy sifatida ko'p yillar yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashdek xayrli ishda fidokorona qilgan;
- Qodirjon Nosirov ko'p yillar davomida NamDU rus filologiyasi fakultetiga rahbarlik qilgan hamda Rus tili va adabiyoti kafedrasini boshqargan;
- Tajribali pedagog sifatida “Muqaddas lira” va “Lirik lahzalar” nomli ijodkor yoshlar klubining tashkilotchisi va rahbari sifatida o'nlab ijodkorlarning rahnomosi bo'lgan;
- Qodirjon Nosirov pedagoglik faoliyatini ijod bilan bog'liq holda olib borgan ijodkor o'qituvchidir. Uning qalamiga mansub o'nlab hikoya va qissalar matbuotda e'lon qilingan, alohida kitob holida chop etilgan.
- Qodirjon Nosirov o'zbek va rus tillarini mukammal bilganligi tufayli rus tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan rus tiliga ko'plab asarlarni tarjima qilgan. Tarjimalari vaqtli matbuot sahifalatida muntazam ravishda bosilgan. Keyinchalik alohida – alohida kitob holida chop etilgan. Tarjimon sifatida qardosh xalqlar va chet el adiblarining mashhur asarlarini tarjima qilgan. Tarjimalarida insoniy fazilatlar ulug'langan asarlarga alohida ahamiyat bergan.
- Qodirjon Nosirov o'n yildan ortiq Muhammad Yusuf hayoti va ijodini o'rgangan. Avvalo, Muhammad Yusufning Namanganda kechgan hayotini, shoir sifatida shakllanish bosqichini tadqiq etib “Muhammad Yusuf Namanganda yoxud oriyatli muhabbat” nomli esse risola yozdi.

- Qodirjon Nosirov Muhammad Yusuf mavzusidagi izlanishlarini davom ettirib, alohida monografiya ham e'lon qildirgan.
- Qodirjon Nosirovning o'zbek adabiyotshunosligining rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Ayniqsa namanganlik ijodkorlar Is'hoqjon Nishonov, Jamoliddin Muslim kabi shoir va yozuvchilar ijodi haqidagi maqolalari diqqatga sazovordir.
- Qodirjon Nosirovning pedagoglik, ilmiy va adabiy –badiiy izlanishlari yoshlarga o'rnak va namunadir.

-

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov.I. Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – Toshkent.: “Ma`naviyat”, 2008. – 106 bet.
2. Karimov.I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: “O`zbekiston”, 2009. – 186 bet.
3. “Kitob mahsulotlarini choh etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot ma`naviyat qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”. O`zbekiston Prezidenti M.Mirziyoyev farmoyishi. // “O`zbekiston adabiyotii va san`ati” gaz, 2017, 13-yan. 3-son, 1-bet.

I. Ilmiy adabiyotlar:

4. Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Носиров О. Ўзбек адабиёти. – Тошкент.: 2007.
5. Носиров Қ. Муҳаммад Юсуф Наманганда ёки ориятли муҳаббат. – Наманган. 2012.
6. Носиров Қ. Муҳаммад Юсуф ижоди наманганлик ижодкорлар нигоҳида. – Наманган. 2016.
7. Носиров Қ. Наманган адабиёти ҳақида лавҳалар. – Наманган. 2010.
8. Носиров Қ. Сонетлар гулдастаси. – Наманган. 2010.

III. Badiiy adabiyotlar:

9. Носиров Қ. Ўғай қалдирғоч. – Наманган. 2010.
10. Честерфильд. Фарзандга мактублар. Қ. Носиров таржимаси. – Наманган. 2012.
11. Кузмин Н. Александр Македонский. Қ. Носиров таржимаси.. – Наманган. 2014.
12. Абул Фароҳ. Латифалар. Қ. Носиров таржимаси. – Наманган. 2016.

NamDU filologiya fakulteti o'zbek tili yo`nalishi 402-guruh talabasi Isoqova Fotima Abdurahmon qizining bakalavr darajasini olish uchun “Qodirjon Nosirov – adabiyotshunos olim” mavzusida yozilgan bitiruv-malakaviy ishi

A N N O T A T S I Y A S I

Mazkur bitiruv-malakaviy ishda NamDU dotsenti Qodirjon Nosirovning ijodiy bibliografiyasi haqida bahs yuritilgan. Olim tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Shuningdek, ishda Qodirjon Nosirovning badiiy ijodi to-risida bahs-mulohaza yuritilgan. Adib sifatidagi faoliyati davomida yozgan asarlariga baho berilgan. Qodirjon Nosirovning tarjimolik faoliyati davomida amalga oshirilgan ishlari ochib berilgan.

Qodirjon Nosirovning Muhammad Yusuf ijodi haqidagi monografiyasi tadqiq etilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Himoyaga tavsiya etaman

Fakultet dekani p.fn. S. Misirov

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

5120100-filologiya o'zbek tili yo'nalishi 402-guruh talabasi

AZIBOYEVA (ISOQOVA) FOTIMAXON ABDURAHMON QIZIning

bakalavr darajasini olish uchun yozgan

“QODIRJON NOSIROV – ADABIYOTSHUNOS OLIM”

MAVZUSIDA BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

O'zbek tili va adabiyoti

Kafedrası mudiri

SH. ABDURAHMONOV

BMI rahbari: Mo'minjon SULAYMONOV

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Namangan – 2017

